

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA ORTA MAXSUS TA'LIM

VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 82.82/821.0+297

MAGISTRATURA BO'LIMI *UDK. 83.3(530)*.

Be - 88.

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

JUMANIYAZOVA DINARA SHUHRATOVNA

"NAVOIY IJODIDA DINIY-MA'RIFIY G'OYALAR TALQINI"

Mutaxassislik: 5A111201- O'zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S Y E R T A S I Y A

Davlat attestatsiya komissiyasida

himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo'lumi boshlig'i:

Kafedra mudiri:

Ilmiy rahbar:



falsafa f.d. A.Yembergenov

f.f.n., dos. S.Matyakupov

f.f.n.,dos. K. Tashanov

NUKUS 2020

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I-BOB. ALISHER NAVOIY - DIN VA TASAVVUF E'TIQODI	18
1.1. Navoiy va islom aqidalari, irfon, tasavvuf	18
1.2. Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari	27
II-BOB. NAVOIY IJODIDA ISHORA SAN'ATI VA MA'RIFIY G'OYALAR TALQINI	42
2.1. Navoiy she'riyatida ishora san'ati	42
2.2. Alisher Navoiy ijodiga oyat, hadislarning ta'siri va ma'rifiy g'oyalar talqini.	52
III-BOB. NAVOIY IJODIDA MUHAMMAD PAYG'AMBAR (S.A.V.) SIYMOSSI	70
3.1. Navoiy g'azallarida Muhammad payg'ambar (s.a.v.) siymosi va ma'rifiy g'oyalar.	70
3.2. Navoiy dostonlarida payg'ambarlar siymosi va ma'rifiy g'oyalar talqini	74
XULOSA.....	82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	85
ILOVA 1	89
Mavzuning amaliyotga tatbiqi	89
ILOVA 2	98

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Magistratura bo'limi
O'zbek adabiyoti kafedrasи
O'quv yili: 2019-2020

Mutaxassislik: O'zbek tili va adabiyoti
Magistrant: Jumaniyazova Dinara Shuhratovna
Ilmiy rahbar: f.f.n., dos.K.Tashanov

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya mavzusi:
«NAVOIY IJODIDA DINIY-MA'RIFIY G'OYALAR TALQINI»
M U A L L I F A N N O T A S I Y A S I**

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbliji: Dunyo adabiyotshunosligida XXI asrga kelib Alisher Navoiy asarlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rghanish muammosi yuzaga keldi. Ilmiy jihatdan takomillashib borayotgan adabiy yo'nalishda tarixiy poetika tajribalarini jahonshumul ijodkorlar asarlariga uyg'un tatbiq etish, ularni kompozitsiya, syujet, badiiy obraz poetikasi nuqtai nazaridan o'rghanish jahon adabiyotshunosligi markazida turgan dolzarb masalaga aylandi.

Biz tanlagan mavzumizning dolzarbliji buyuk shoir Alisher Navoiy ijodida diniy-ma'rifiy g'oyalar, Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) siymosi va ijodida Qur'oni Karim oyatlari, suralariga ishoralarlarni ilk bor magistrlik dissertatsiya doirasida tadqiq etilayotganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ob'ekti: Alisher Navoiy nazmiy va nasriy asarlaridaga diniy-ma'rifiy g'oyalar, Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) siymosi va ijodida Qur'oni Karim oyatlari, suralariga ishoralarlar talqini hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti sifatida Alisher Navoiyning keyingi yillarda nashr etilgan asarlari, xususan, mukammal asarlar to'plami (Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik -T.: Fan. 1991-2005), shuningdek, shoir ijodi haqidagi ilmiy-tadqiqotlar, monografiya va risolalar, vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalar manbaviy asos bo'lib xizmat qildi.

Mavzuning ishlanganlik darajasi: Mustaqillik sharofati bilan Navoiy ijodini o'rghanishda ham yangi bir yo'nalish paydo bo'ldi. Shoir asarlarining yangi talqinlari yaratildi. Uning dostonlari, nasriy asarlar qayta-qayta tadqiq etilmoqda. Navoiy ijodida irfoniy haqiqatlarning tasviriga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar e'lon qilindi.

So'nggi yillarda N.Komilov, I.Haqqulov, A.Abduqodirov, E.Ochilov, N.Ramazonov, S.Olim, K.Mullaxo'jaevalarning tadqiqot va maqolalarida bu masalaga doir talay yangi ma'lumotlar, fikr-mulohazalar bayon etildi.

Albatta, mavzu mavzuni tadqiq etishda biz adabiyotshunoslikda erishilgan yutuqlarga, xususan, A.Hayitmetov, H.Yoqubov, I.Haqqulov, S.Olimov singari olimlarimizning ilmiy nuqtai nazarlariga, qarashlariga tayanamiz.

Tadqiqotning maqsadi: Bu mavzuni tadqiq qilishda quyidagilarni maqsad etib qo'yidik:

- Navoiy asarlarida diniy-ma'rifiy g'oyalar o'rghanish;
- Navoiy asarlaridagi diniy-ma'rifiy mavzu doirasini aniqlash;
- Navoiy asarlaridagi diniy-ma'rifiy g'oyalar talqinida badiiyat va lirik qahramon masalasini oydinlashtirish;
- Shoir asarlarida tasvir va obraz holatlarida ko'rinishini o'rghanish;
- Ishora san'atini o'rghanish;
- Navoiy asarlarida islom dini aqidalarini ma'rifiy g'oyalar talqinida ifodasini o'rghanish.

Tadqiqotning vazifalari: Dissertatsiyada ko'zlangan maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi:

- Navoiy hayoti va ijodiga oyat, hadislarning ta'siri;
- Navoiy asarlarida, xususan, "Nasoyim ul muhabbat", «Nazm ul-javohir», «Risolai tiyr andoxtan», «Vaqfiya», «Siroj ul-muslimin», "Arba'in", "Munojot" kabi asarlari misolida diniy-ma'rifiy g'oyalar talqini;

- Navoiy asarlarida Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) siyosining tasvirlanishi masalasi;
- Navoiy ijodida ishora san’ati o‘rganiladi;
- Navoiy ijodida ishora san’atini tadqiq etiladi;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Mazkur tadqiqotning asosiy masalalari va tahlil natijalari yuzasidan ilgari surilgan ilmiy farazlar quyidagilarda aks etdi:

- Navoiy asarlaridagi diniy-ma’rifiy g‘oyalar talqinining o‘ziga xosligi;
- Navoiy asarlarida oyat, hadislarning ma’rifiy g‘oyalar bilan bog‘liqligi;
- Navoiy asarlarida Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) siyosining tasviri;
- Navoiy ijodida ishora san’atining diniy-ma’rifiy g‘oyalar talqinida o‘rnii;
- Navoiy badiiy tafakkurida muammoga individual yondashuv xilma-xilligi;

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili): Dissertatsiyada jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy ijod nazariyasi, diniy-ma’rifiy, milliy va umuminsoniy muammolar talqini, xususan, Navoiy ijodiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar hamda ilmiy maqolalar atroflicha o‘rganib chiqildi. Shuningdek, Navoiy ijodini qiyosiy tipologik tahlil qilinishida ko‘rsatilgan adabiyotlarga murojaat qilindi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning tavsifi: Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida hamda uning nazariy asosini belgilashda milliy istiqlol g‘oyasi, O‘zbekiston Respublikasining Sh.Mirziyoevning milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi haqidagi bayonotlari, Aristotel, Gegel, V.G.Belinskiy, A.F.Losev, M.Baxtinlarning badiiy ijod poetikasi xususida metodologik ahamiyatga molik mulohazalariga tayanildi. Shuningdek, Oybek, Shayhzoda, Izzat Sulton, P.Shamsiev, Yo.Is‘hoqov, A.Xayitmetov, S.G‘anieva, M.Mirzaahmedova, A.Hayitmetov, H.Yoqubov, I.Haqqulov, S.Olimov, D.Yusupova, N.Bozorova kabi adabiyotshunoslarning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiqot uchun ilmiy-metodologik asos vazifasini o‘tadi.

Dissertatsiyada adabiy tahlil, struktural talqin usullariga murojaat qilindi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Ushbu magistrlik dissertatsiyasi Alisher Navoiy asarlarida diniy-ma’rifiy g‘oyalar talqini masalasini o‘rganishga bag‘ishlangani bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi. Magistrlik dissertatsiyasining nazariy xulosalari va tavsiyalaridan olyi o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan O‘zbek adabiyoti”, “Navoiyshunoslilik” fanilarini o‘qitishda, akademik litsey hamda kollejlar, o‘rta umumta’lim maktablari uchun o‘zbek adabiyoti fani bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar yaratishda, uslubiy tavsyanomalar tuzishda, talabalarga maxsus kurslar o‘qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, muammo ilk bor magistrlik dissertatsiyasi doirasida mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy davrida shakllangan badiiy-estetik qarashlar asosida maxsus ob’ekt sifatida o‘rganilayotganligida qabarib ko‘rinadi. Dissertatsiyada Alisher Navoiy asarlaridagi diniy-ma’rifiy g‘oyalar talqin va badiiy ifodaning quyidagi qirralari yoritiladi:

- Navoiy davri mumtoz adabiyoti yangilanishida milliy poetik an‘analar;
- Navoiy asarlarida uslubiy yangilanish va janr tabiat;
- Navoiy ijodida poetik talqin va badiiy ifoda tadriji kuzatildi;
- Navoiy asarlarida poetik talqin va badiiy ifoda o‘ziga xosligi;
- Navoiy ijodida yangi adabiy tajribalar;
- Navoiy asarlarida tasvir o‘ziga xosligi va talqinlar;

Tadqiqotning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, asosiy qismni tashkil etgan har biri ikkita faslni o‘z ichiga oluvchi uchta mustaqil bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ko‘rsatkichidan iborat. Dissertatsiyaning haimi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan tashqari 82 betdan iborat.

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dotsent K.Tashanov

Magistrant:

D.Jumaniyazova

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**
NUKUS STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE NAMED AFTER AJINIYOZ

Master's degree

Department of Uzbek Literature

Academic year: 2019-2020

Specialty: Uzbek language and literature

Master: Jumaniyazova Dinara Shuhratovna

Supervisor: Ph.D., docent K.Tashanov

The topic of the dissertation for a master's degree:

«INTERPRETATION OF RELIGIOUS AND EDUCATIONAL IDEAS IN NAVOI'S WORK»

AUTHOR'S ANNOTATION

Substantiation and relevance of the dissertation: In the XXI century in world literature there is a problem of scientific and theoretical organization of the works of Alisher Navoi. The application of the experience of historical poetics in the scientifically improving literary direction to the works of world-famous artists, their organization in terms of composition, plot, poetics of the artistic image has become a topical issue in the center of world literature.

The relevance of our chosen topic is explained by the fact that the great poet Alisher Navoi studied religious and enlightenment ideas, the image of the Prophet Muhammad (saas) and the verses of the Holy Quran in his master's dissertation for the first time.

Object of research: Alisher Navoi's poetic and prose works contain religious and enlightenment ideas, the image of the Prophet Muhammad (saas) and the interpretation of verses and suras of the Holy Quran in his works.

The subject of research is the works of Alisher Navoi published in recent years, in particular, a collection of excellent works (Alisher Navoi. A complete collection of works. Twenty volumes -T.: Science. 1991-2005), as well as research, monographs and pamphlets on the poet's work. , articles published in the periodicals served as a source basis.

Level of elaboration of the theme: Thanks to independence, a new direction has emerged in the organization of Navoi's work. New interpretations of the poet's works have been created. His epics and prose works are being studied again and again. Scientific researches and articles devoted to the description of mystical truths in Navoi's works were published.

In recent years, research and articles by N.Kamilov, I.Hakkulov, A.Abdukodirov, E.Ochilov, N.Ramazonov, S.Olim, K.Mullahojaeva have contained a lot of new information and opinions on this issue.

Of course, in studying the topic, we rely on the achievements in literature, in particular, the scientific views of our scientists, such as A. Hayitmetov, H. Yakubov, I. Hakkulov, S. Olimov.

Purpose of the study: In researching this topic, we aimed to:

- Religious and enlightenment ideas are organized in Navoi's works;
- Defining the scope of religious and educational themes in Navoi's works;
- Clarification of the issue of art and lyrical hero in the interpretation of religious and enlightenment ideas in the works of Navoi;
- Organize the appearance of images and images in the works of the poet;
- Organizing sign art;
- Organizing the expression of Islamic religious beliefs in Navoi's works in the interpretation of enlightenment ideas.

Objectives of the research: The following tasks are solved to achieve the purpose of the dissertation:

- The influence of verses and hadiths on the life and work of Navoi;
- Interpretation of religious and enlightenment ideas in Navoi's works, in particular, on the example of Nasayim ul muhabbat, Nazm ul-javohir, Risolai tiyr andoxtan, Vaqfiya, Siroj ul-muslimin, Arbain, Munojot;
- The issue of depicting the image of the Prophet Muhammad (saas) in Navoi's works;

- In Navoi's work the art of sign is organized;
- In Navoi's work, the art of sign is studied;
- The main issues and hypotheses of the research: The main issues and hypotheses of the research are as follows:
- The uniqueness of the interpretation of religious and enlightenment ideas in the works of Navoi;
- The connection of verses and hadiths in Navoi's works with enlightenment ideas;
- The image of the Prophet Muhammad (saas) in the works of Navoi;
- The role of sign art in Navoi's work in the interpretation of religious and enlightenment ideas;
- The diversity of individual approaches to the problem in Navoi's artistic thinking;

Review of the literature on the research topic (analysis): The dissertation is a comprehensive study of the theory of artistic creation, interpretation of religious, educational, national and universal problems in world and Uzbek literature, in particular, monographs and scientific articles on Navoi's work. He also referred to the literature presented in the comparative typological analysis of Navoi's work.

Description of research methods: The idea of national independence in the process of writing a master's dissertation and its theoretical basis, the statements of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev on the common national and universal values, Aristotle, Hegel, VGBelinsky, AFLosev, M. Bakhtin relied on the comments of the owner. Also Oybek, Shaykhzoda, Izzat Sultan, P.Shamsiev, Yo.Ishakov, A.Khayitmetov, S.Ganieva, M.Mirzaahmedova, A.Hayitmetov, H.Yoqubov, I.Haqqulov, S.Olimov, D.Yusupova, N The scientific and theoretical views of literary critics such as Bozorova serve as a scientific and methodological basis for research.

The dissertation addresses the methods of literary analysis, structural interpretation.

Theoretical and practical significance of the research: This master's dissertation is of scientific significance as it is devoted to the organization of the interpretation of religious and enlightenment ideas in the works of Alisher Navoi. Theoretical conclusions and recommendations of the master's dissertation can be used in the teaching of Uzbek literature, Navoi studies in higher education, in the creation of textbooks and manuals on Uzbek literature for academic lyceums and colleges, secondary schools, methodological recommendations, special courses for students.

Scientific novelty of the research: First of all, the scientific novelty of the research is exaggerated when the problem is organized as a special object in the classical literature on the basis of artistic and aesthetic views formed in the time of Alisher Navoi. The dissertation covers the following aspects of interpretation and artistic expression of religious and enlightenment ideas in the works of Alisher Navoi:

- National poetic traditions in the renewal of classical literature of the Navoi period;
- Methodological renewal and genre nature in Navoi's works;
- In Navoi's work there was a gradual process of poetic interpretation and artistic expression;
- The peculiarity of poetic interpretation and artistic expression in Navoi's works;
- New literary experiments in Navoi's work;
- Image specificity and interpretations in Navoi's works;

The structure of the study. The dissertation consists of an introduction, three independent chapters, each of which consists of two chapters, a summary and an index of references. The volume of the dissertation consists of a title page, table of contents, list of references, 82 pages in addition to the appendix.

Supervisor:  Ph.D., Associate Professor K.Tashanov

Master:  D.Jumaniyazova

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbliji: Jahon adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodini o‘rganish besh yuz yildan ortiq tarixga ega bo‘lib, bu davr mobaynida Sharq va G‘arb mamlakatlarida minglab ilmiy asarlar yaratildi hamda ulug‘ shoir va mutafakkir ilmiy-ijodiy merosining jahon madaniyati tarixidagi o‘rni yuqori baholandi. Adibning betakror she’riy-epik asarlari qatorida tarixiy-nasriy asarlari ham jahon madaniyati va adabiyotining buyuk obidalari ekanligi asoslab berildi.

Dunyo adabiyotshunosligida XXI asrga kelib Alisher Navoiy asarlarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish muammosi yuzaga keldi. Ilmiy jihatdan takomillashib borayotgan adabiy yo‘nalishda tarixiy poetika tajribalarini jahonshumul ijodkorlar asarlariga uyg‘un tatbiq etish, ularni kompozitsiya, syujet, badiiy obraz poetikasi nuqtai nazaridan o‘rganish jahon adabiyotshunosligi markazida turgan dolzarb masalaga aylandi. Mutafakkirning adabiy-ilmiy, xususan, qadimiy Sharq tarixiga bag‘ishlangan nasriy merosini bugungi kun talablari asosida tadqiq etish ham adabiyotshunoslik fani oldida yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi.

Istiqlol yillarida Alisher Navoiyning ikki tildagi (turkiy va forstojik) go‘zal lirikasi, yuksak insonparvar g‘oyalarni targ‘ib etuvchi asarlari o‘zbek adabiyotshunosligida ancha chuqur, mufassal va mukammal o‘rganilgan bo‘lsa-da, shoirning nasriy asarlarining tadqiqi yetarlicha izchillik bilan amalga oshirilmadi. Zero, “Alisher Navoiy bobomiz xotirasiga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, ul zotning tabarruk merosini o‘rganish, yosh avlodimizga bezavol yetkazish”¹ lozim. Shu tufayli Alisher Navoiy asarlari matnlarining badiiy jihatlari va shoir nasriy

¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б. 113.

uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini zamonaviy ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Sharq xalqlari tafakkuri tarixida chuqur ildiz otgan tasavvuf ta’limotini yaxshi bilmay turib, Alisher Navoiy dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranlig‘i bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoiiy yoritib berish mushkul. O‘ttizinchi yillardayoq Oybek bunga e’tiborni qaratgan edi. Ammo, nazarimda, bu masala hamon hal bo‘lmasdan dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki hozir ham ulug‘ shoir asarlarini «kerakli» va «keraksiz» qismlarga ajratish, orifona mazmundagi she’rlarini nashrlardan soqit qilib, el ko‘zidan yashirish, «payqamasdan» tadqiqotlarga kiritmaslikka moyillik davom etmoqda.

Ba’zan esa, so‘fiyona ma’nolarni anglab yetmaganimiz sababli, Navoiyning ramziy ibora-istioralarini haminqadar talqin etib, o‘quvchilarni chalg‘itib kelmoqdamiz. Bu hol Navoiy dahosini, olamining bepoyonligi va ulug‘vorligini muazzam salohiyati ham ko‘rkamligi bilan idrok etishga xalaqit beradi. Vaholanki, Navoiy merosi — yaxlit bir adabiy borliq, bebahom a’naviy xaziia. Va yana muhimi shundaki, shoirniig o‘lmas gumanizm bilan ko‘kargan hayotbaxsh g‘oyalari «dunyoviy» asarlarida qanday porlab tursa, biz bir chekkaga olib qo‘ymoqchi bo‘lgan «ilohiy» asarlarida ham shunday kuch bilan nur taratib turadi. Zotan, ular zohiriyl jihatdan shunday, aslida esa, botiniy ma’nolari mohiyatiga ko‘ra bir xil falsafiy-tasavvufiy qarashlar silsilasiga borib taqaladigan o‘zaro uzviy aloqador asarlar bo‘lib, birini ikkinchisisiz tushunish qiyin. Bas, shunday ekan, shoir asarlarida uchraydigan ishq, may, mayxona, xarobot, soqiy, sog‘ar, qadah, xum, ko‘ngil, mahbub singari ko‘pdan ko‘p kinoya-timsollar, ramziy ma’noli so‘zlar va ular zaminida yotgan yashirin manolar asrori hamda uning ijodi yaxlit bir butunlikda olib tekshirilib, olam va odam haqidagi mushohada-muloxazalari ichida sharhlansagina, mazmuni kerakli darajada ochiq

oydinlashishi mumkin.

Qayd etish joizki, ishqilohiyni tarannum etgan irfoniy-ma'rifiy mazmundagi g'azallar Navoiy devonlarining asosiy qismini tashkil etadi, ularni esa bir necha guruhgaga bo'lish mumkin: 1) munojot-g'azallar; 2) Xudo va payg'ambar madhiga bag'ishlangan na't-hamd g'azallar; 3) oshiqning ahvolini tasvirlovchi «sharhi hol» g'azallar; 4) falsafiy fikr-mushohadalarni ifodalovchi g'azallar. Tilga olingan g'azalda oshiqona kechinmalar ruhi, yor vasfi ham, falsafiy mushohada-mukoshifa ham bor. Demak, asar biron-bir his, biron-bir muayyan holatni emas, shoirning katta mavzu atrofidagi umumiylashtirish uchun shunga muvofiq ishqning inson qalbiga o'tkazadigan ta'siri haqida zikr etadi, ishq va fano, tariqat yo'lining jozibasi va tahlikasi shoirona talqin etiladi. Shu bois g'azal baytlarini bevosita o'zaro zanjiriy bog'lanish emas, balki qofiya, radif, mavzu va ohang mushtarakligi birlashtirib turadi, madh, vasf, sharhi hol va tasavvufiy ma'nolar bir o'zandagi oqimga tushirilgan.

Umuman, Navoiyda ilohiy ishq har xil holatlarga bog'lanib, har bir asarida o'zgacha bir tarovat yangi-yangi ifoda, uslubiy tarzu raviya bilan kuylanadi. Shuning uchun uning asari bir-birining aynan takrori emas, balki har biri yangi asar sifatida o'quvchiga alohida zavq bag'ishlaydi, tasavvufiing har bir maqomi va manzillaridagi ruhiy holat, bu manzillarni kashf etish qiyinchiliklari, Buyuk Ilohnинг huzuriga talpinish, sog'inch va qo'msash, ma'naviyat ne'matidan "sарxushlik, qalbi ma'rifatga g'arq **Do'st** diydoriga tashnalik, undan mahrumlik damlaridagi iztirob har bir g'azalda turfa rangu ohang, suvratu san'atlar orqali takror-takror talqin etiladi. Bu g'azalchilikda, ayniqsa, orifona she'riyatda qabul qilingan an'ana bo'lib, shoirning o'ziga xos mahorati, navbunyodkorligi shu an'ana bag'rida kamol topib, ko'zga ayonlashdi. Buni me'morlik san'ati bilan qiyoslasa bo'ladi: Samarqandu Buxoro, Iroqu Nishopur, Balxu Hirot me'morchilik yodgorliklariga qarang,

ularning naqshu nigori, koshinlari, tarhu tarovatida o‘xshashlik bor. Ammo har biri yana o‘ziga xos salobat, husnu jozibaga ega, har bir me’morning «dastxati»ni aniq his etasiz. She’riyat ham shu: qat’iy an’analar andozasi ichra benazir ustakorlik, ulug‘ salaflar darajasiga ko‘tarilish va shu maydonda ihtiolar qilish, yangi yo‘l, yangi ohanglar topib, elni qoyil qilish. An’anaviy usul-raviyada mahorat ko‘rsatish - bir mo‘jiza, asrlar an’anasini yengib shoirona ixtiolar qilish - ikkinchi, yanada oliyroq mo‘jiza. Navoiyning har bir asarida an’anaviy mavzuni yangi ruh, yangi tuyg‘u va fikr bilan yangidan yangratish, shoirona mo‘jizalar ko‘rsatish mahorati namoyon. Biz tanlagan mavzumizning dolzarbligi buyuk shoir Alisher Navoiy ijodida diniy-ma’rifiy g‘oyalar, Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) siymosi va ijodida Qur’oni Karim oyatlari, suralariga ishoralarlarni ilk bor magistrlik dissertatsiya doirasida tadqiq etilayotganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ob’ekti: Alisher Navoiy nazmiy va nasriy asarlaridaga diniy-ma’rifiy g‘oyalar, Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) siymosi va ijodida Qur’oni Karim oyatlari, suralariga ishoralarlar talqini hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti sifatida Alisher Navoiyning keyingi yillarda nashr etilgan asarlari, xususan, mukammal asarlar to‘plami (Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik -T.: Fan. 1991-2005), shuningdek, shoir ijodi haqidagi ilmiy-tadqiqotlar, monografiya va risolalar, vaqtli matbuotda e’lon qilingan maqolalar manbaviy asos bo‘lib xizmat qildi.²

Mavzuning ishlanganlik darjasи: Mustaqillik sharofati bilan Navoiy ijodini o‘rganishda ham yangi bir yo‘nalish paydo bo‘ldi. Shoir asarlarining yangi talqinlari yaratildi. Uning dostonlari, nasriy asarlari qayta-qayta tadqiq etilmoqda. Navoiy ijodida irfoniy haqiqatlarning tasviriga bag‘ishlangan ilmiy

² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик -Т.: Фан. 1991-2005

tadqiqotlar, maqolalar e'lon qilindi.³

Navoiy asarlarini o'rganish, ijodkor dunyoqarashini ohib berish, g'oyalar olamini yoritish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilgan. Bu borada Oybek, Shayhzoda, Izzat Sulton, P.Shamsiev, Yo.Is'hoqov, A.Xayitmetov, S.G'anieva, M.Mirzaahmedova kabi olimlarning tadqiqot va izlanishlari navoiyshunoslik fani qo'lga kiritgan ulkan yutuqdir. Buyuk mutafakkir ijodini tushunish, asarlarini o'quvchilarga etkazishda bu olimlarning xizmatlari beqiyosdir.⁴

So'nggi yillarda N.Komilov, I.Haqqulov, A.Abdugodirov, E.Ochilov, N.Ramazonov, S.Olim, K.Mullaxo'jaevalarning tadqiqot va maqolalarida bu masalaga doir talay yangi ma'lumotlar, fikr-mulohazalar bayon etildi.⁵

Albatta, mavzu mavzuni tadqiq etishda biz adabiyotshunoslikda erishilgan yutuqlarga, xususan, A.Hayitmetov, H.Yoqubov, I.Haqqulov, S.Olimov singari olimlarimizning ilmiy nuqtai nazarlariga, qarashlariga tayanamiz.

Tadqiqotning maqsadi: Bu mavzuni tadqiq qilishda quyidagilarni maqsad etib qo'ydik:

- Navoiy asarlarida diniy-ma'rifiy g'oyalar o'rganish;
- Navoiy asarlaridagi diniy-ma'rifiy mavzu doirasini aniqlash;
- Navoiy asarlaridagi diniy-ma'rifiy g'oyalar talqinida badiiyat va lirik qahramon masalasini oydinlashtirish;
- Shoir asarlarida tasvir va obraz holatlarida ko'rinishini o'rganish;

³ Ҳаққул И. Тасаввуф ва Навоий шеърияти ҳақида// Навоий ижод олами. -Т.: 2001; Ҳаққул И. Агар орифга етса ганж файзи... Ирфон ва идрок.-Т.: 2000; Комилов Н. Тафаккур тухфалари. // Навоийнинг ижод олами. -Т.: 2001. Очилов Э. Комилликнинг икки йўли./ Навоийнинг ижод олами. -Т.: 2001. Рамазонов Н. Насойимнинг ўзига хос хусусиятлари. / Навоийнинг ижод олами.. -Т.: 2001 ва бошқалар.

⁴ Ойбек. Навоий гулшани. -Т.: 1967. Шайхзода М. Асарлар. 1-том –Т.: 1972. Шайхзода М. Гениал шоир. -Т.: 1941. П.Шамсиев. Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий. -Т.: 1966. А.Хайитметов. Навоий ижодининг баъзи масалалари. // Навоий ва ижод сабоқлари. -Т.: 1981. А.Хайитметов. Навоий лирикаси. -Т.: 1961. Ё.Исҳоқов. Навоий поэтикаси («Хазойин ул-маоний» асосида). -Т.: 1993. Ё.Исҳоқов. Навоийнинг ilk лирикаси. -Т.: 1965; Н.Бозорова. Алишер Навоий газалларида кўнгил образи («Бадоеъ ул-бидоя» асари асосида). Филол. фанлари номз. дисс. Т., 2001.

⁵ Комилов Н. Тасаввуф. -Т.: 1996; Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. -Т.: 1998.;Хаккулов И. Тасаввуф ва шеърият. -Т.: 1998; Ҳаккулов. И. Тасаввуф сабоқлари. Бухоро, 2000; Ҳаккулов И.. Ирфон ва идрок. -Т.: 2000; .Ҳаккулов. И.. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлик ва образлар олами). Филол. фанлари д-ри ... дисс. -Т.: 1995.

- Ishora san’atini o‘rganish;
- Navoiy asarlarida islam dini aqidalarini ma’rifiy g‘oyalar talqinida ifodasini o‘rganish.

Tadqiqotning vazifalari: Dissertatsiyada ko‘zlangan maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi:

- Navoiy hayoti va ijodiga oyat, hadislarning ta’siri;
- Navoiy asarlarida, xususan, “Nasoyim ul muhabbat”, «Nazm ul-javohir», «Risolai tiyr andoxtan», «Vaqfiya», «Siroj ul-muslimin», “Arba’in”, “Munojot” kabi asarlari misolida diniy-ma’rifiy g‘oyalar talqini;
- Navoiy asarlarida Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) siymosining tasvirlanishi masalasi;
- Navoiy ijodida ishora san’ati o‘rganiladi;
- Navoiy ijodida ishora san’atini tadqiq etiladi;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Mazkur tadqiqotning asosiy masalalari va tahlil natijalari yuzasidan ilgari surilgan ilmiy farazlar quyidagilarda aks etdi:

- Navoiy asarlaridagi diniy-ma’rifiy g‘oyalar talqinining o‘ziga xosligi;
- Navoiy asarlarida oyat, hadislarning ma’rifiy g‘oyalar bilan bog‘liqligi;
- Navoiy asarlarida Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) siymosining tasviri;
- Navoiy ijodida ishora san’atining diniy-ma’rifiy g‘oyalar talqinida o‘rni;
- Navoiy badiiy tafakkurida muammoga individual yondashuv xilmassisligi;

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili): Dissertatsiyada jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy ijod nazariyasi, diniy-ma’rifiy, milliy va umuminsoniy muammolar talqini, xususan, Navoiy ijodiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar hamda ilmiy maqolalar

atroflicha o‘rganib chiqildi. Shuningdek, Navoiy ijodini qiyosiy tipologik tahlil qilinishida ko‘rsatilgan adabiyotlarga murojaat qilindi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning tavsifi: Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida hamda uning nazariy asosini belgilashda milliy istiqlol g‘oyasi, O‘zbekiston Respublikasining Sh.Mirziyoevning milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi haqidagi bayonotlari, Aristotel, Gegel, V.G.Belinskiy, A.F.Losev, M.Baxtinlarning badiiy ijod poetikasi xususida metodologik ahamiyatga molik mulohazalariga tayanildi. Shuningdek, Oybek, Shayhzoda, Izzat Sulton, P.Shamsiev, Yo.Is’hoqov, A.Xayitmetov, S.G‘anieva, M.Mirzaahmedova, A.Hayitmetov, H.Yoqubov, I.Haqqulov, S.Olimov, D.Yusupova, N.Bozorova kabi adabiyotshunoslarning badiiy adabiyotning poetik mohiyati, badiiy so‘z estetikasi, Navoiy asarlaridagi shakl va mazmun, mavzu va g‘oya, timsollar, ramzlar kabi masalalariga bag‘ishlangan asarlaridagi ilmiy-nazariy qarashlari tadqiqot uchun ilmiy-metodologik asos vazifasini o‘tadi.

Xususan, adabiyotshunos olimlarning Navoiy ijodi haqidagi tadqiqotlariga va ilmiy maqolalariga, Navoiy asarlariga tayangan holda adabiy talqindan keng foydalanildi. Alisher Navoiy asarlarini, xususan, g‘azallari, “Nasoyim ul muhabbat”, «Nazm ul-javohir», «Risolai tiyr andoxtan», «Vaqfiya», «Siroj ul-muslimin», “Arba’in”, “Munojot” kabi asarlarini tahlil qilish jarayonida buyuk shoirning diniy-ma’rifiy g‘oyalar poetik talqini, badiiy ifoda va o‘ziga xosligiga alohida e’tibor qaratildi. Bundan tashqari, dissertatsiyada adabiy tahlil, struktural talqin usullariga murojaat qilindi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Ushbu magistrlik dissertatsiyasi Alisher Navoiy asarlarida diniy-ma’rifiy g‘oyalar talqini masalasini o‘rganishga bag‘ishlangani bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi. Uning natijalari kelgusida amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun muayyan ahamiyatga

ega bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Magistrlik dissertatsiyasining nazariy xulosalari va tavsiyalaridan oliv o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan O‘zbek adabiyoti”, “Navoiyshunoslik” fanilarini o‘qitishda, akademik litsey hamda kollejlar, o‘rta umumta’lim maktablari uchun o‘zbek adabiyoti fani bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar yaratishda, uslubiy tavsiyanomalar tuzishda, talabalarga maxsus kurslar o‘qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ishimizning ilmiy yangiligi Alisher Navoiy asarlarida diniy-ma’rifiy g‘oyalalar talqini poetika, badiiy talqin nuqtai ilk marotaba o‘rganilayotganida ko‘rinadi. Biz mazkur masalani o‘rganish orqali Navoiy badiiy mahoratini yoritishga harakat qildik. Ishimizning ilmiy yangiligi shu jihatlarda namoyon bo‘ladi.

Umuman, dissertatsiyada mavzuning dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va farazi, tadqiqotning manbaalari, ilmiy-nazariy va ilmiy amaliy ahamiyati, ob’ekti, tuzilishi yoritilgan bo‘lib, Alisher Navoiy asarlaridagi diniy-ma’rifiy g‘oyalarning o‘zbek mumtoz adabiyotiga xos shakliy-uslubiy izlanishlari o‘rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, muammo ilk bor magistrlik dissertatsiyasi doirasida mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy davrida shakllangan badiiy-estetik qarashlar asosida maxsus ob’ekt sifatida o‘rganilayotganligida qabarib ko‘rinadi.

Dissertatsiyada Alisher Navoiy asarlaridagi diniy-ma’rifiy g‘oyalalar talqin va badiiy ifodaning quyidagi qirralari yoritiladi:

- Navoiy davri mumtoz adabiyoti yangilanishida milliy poetik an'analar;
- Navoiy asarlarida uslubiy yangilanish va janr tabiat;
- Navoiy ijodida poetik talqin va badiiy ifoda tadriji kuzatildi;
- Navoiy asarlarida poetik talqin va badiiy ifoda o‘ziga xosligi;
- Navoiy ijodida yangi adabiy tajribalar;

➤ Navoiy asarlarida tasvir o‘ziga xosligi va talqinlar;

Tadqiqotning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, asosiy qismni tashkil etgan har biri ikkita faslni o‘z ichiga oluvchi uchta mustaqil bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ko‘rsatkichidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan tashqari 78 betdan iborat.

I-BOB. ALISHER NAVOIY - DIN VA TASAVVUF E'TIQODI

1.1. Navoiy va islom aqidalari, irfon, tasavvuf. Buyuk so‘z san’atkorlari tarixning tub burilish nuqtalarida, millatni birlashtiruvchi, ruhan yuksaltiruvchi badiiy so‘zga kuchli ehtiyoj tug‘ilgan paytda dunyoga keladi. Alisher Navoiy xuddi ana shu davrda yashadi.

Mir Alisher Navoiyning shoir va davlat arbobi sifatida ma’naviyat va ma’rifat, adabiyot, tilshunoslik, o‘zbek milliy davlatchiligi ravnaqiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir.

Buyuk Navoiyning insoniyat, jamiyat oldidagi buyuk xizmatlari nafaqat o‘sha davr bilan bog‘liq, balki bugun ham, kelajakda ham el-yurtga naf keltirishni oliy saodat deb bilganini komil inson, xalqparvarlik, millatlararo do‘stlik, tinchlik va osoyishtalik tarannum etilgan asarlari orqali ham yaxshi bilamiz. Bu beba ho ma’naviy meros millat tarbiyasi, yoshlarni milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda g‘oyatda muhim rol o‘ynashini hammamiz yaxshi bilamiz. Shunday ekan, Alisher Navoiy asarlarini qo‘ldan qo‘ymay o‘qib o‘rganish ham farz, ham qarzdir.

Navoiy dunyoqarashida islom dini, aqidalari va tasavvufning shakllanishini uning hayoti va ijodini, ijtimoiy faoliyatini kuzatishda aniqlashadi. Alisher Navoiy o‘z davrining farzandi sifatida islom dini asoslarini oila, maktab va madrasalarda oladi. Masalaning yana bir tomoni otasi G‘iyosiddin Bahodirning ota-boblari saroyga, temuriylarga juda yaqinligi ham ahamiyatli rol o‘ynagan. Bu shoir dunyoqarashining shakllanish bosqichini tashkil etadi.

Navoiy dunyoqarashida islom dini, aqidalarining shakllanishida “Qur’oni Karim”ni to‘liq o‘zlashtirganidir. Alisher Navoiy bolalik chog‘lari ko‘p kitob o‘qidi. Eski maktab, madrasada Qur’on suralari yod olinar, qiroat usullari o‘rgatilar zdi. Demak, Alisher Navoiy bolalik chog‘laridan oq

Qur’oni Karimni yod olgan. Uning xotirasi (quvvai hofizasi) juda kuchli bo‘lgan. Bu shoir dunyoqarashi shakllanishining ikkinchi bosqichdir. Masalan, Navoiyning har bir faoliyati Qur’oni karim oyati karimalarida qayd etilgan fikrlar bilan mos keladi. Baqara surasining 110-oyatida «Namozni qoim qiling, zakot bering, o‘zingiz uchun qilgan yaxshilikni Alloh huzurida topasiz», deyilgan. Navoiy namozni hamisha qoim qilgan zotdir. «...Bu obidlar va bandalar panohining juma namozini va boshqa namozlarni jamoat bilan o‘tashda g‘ayrati shu darajaga yetgan ediki, Marg‘ani bog‘ida g‘oyatda ziynatlari bir masjid bino qilib, o‘z zamonining atoqli qorilaridan Xoja Hofiz Muhammad Sultonshohni imom belgiladi va o‘zi u yerda besh vaqg namozga hozir bo‘lardi».

Navoiy dunyoqarashida islom dini, aqidalarining to‘liq shakllanishida uning o‘z davrining mashhur Lutfiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad singari kishilari bilan muloqatlari, do‘stligidir.

Alisher Navoiy dunyoqarashida tasavvufning shakllanish jarayonining boshlanishi Fariduddin Attorning «Mantiqut tayr» dostoni ixlos qo‘yanligi va yod olganligi. Zero, Fariduddin Attorning «Mantiqut tayr» dostoni shoir dunyoqarashini, butun hayotini o‘zgartirgan. Shuningdek, Navoiy yigitlik chog‘lari 50 ming bayt g‘azalni yod bilganligidir.

Keyinchalik Navoiyda tasavvufiy dunyoqarashning, hayoti va ijodining mazmun-mohiyatiga aylanishida Sayyid Hasan Ardasher va Abdurahmon Jomiy larning ta’siri nihoyatda kuchli bo‘lgan. Sayyid Hasan Ardasher sirdosh va rag‘bat do‘st ardog‘ida bo‘lib, Navoiyni ijodga undab turgan bo‘lsa, Abdurahmon Jomiy ustoz va pir sifatida unga maslahatlar berib turgan. Abdurahmon Jomiy Navoiy uchun tariqatda – pir, adabiyotda – ustoz, hayotda - do‘st maqomidagi ulug‘ inson bo‘lgan. Fikrimizni Alisher Navoiyning birgina «Xamsat ul-mutahayyirin» asarining o‘zi ham isbotlaydi.

Sababi, "Xamsat ul-mutahayyirin" ("Besh hayrat") – "Nuran maxdum" ("Nurli zot") deb ulug'langan A.Jomiyga bag'ishlangan yodnoma asari bo'lib, muqaddima, qiziqarli voqealar, maktublar, Jomiy asarlari ro'yxati va Xotima qismlardan iborat.

Navoiyning tasavvuf, xususan, naqshbandiya tariqatiga munosabati ochiq e'tirof sifatida uning asarlarida ko'zga tashlanadi. Shoir dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan ayrim ijtimoiy oqim va uyushmalarga munosabati asarlarida mahorat bilan to'qilgan parda ortiga yashiringan. Navoiyda komil inson konsepsiysi shakllanishiga futuvvat (javonmardlik) katta ta'sir ko'rsatgan. Alisher Navoiy futuvvatning Kichik Osiyo hududidagi o'ziga xos tarmog'i bo'lmish hamda Xuroson va Movarounnahrda "javonmard" deb atalgan, "axiylik" harakati namoyandası «Sab'ai sayyor»dagi Axiyning yorqin obrazini yaratgan. Shoirning o'z tili bilan aytganda:

Muruvvat – barcha bermakdur, yemak yo'q,

Futuvvat – barcha qilmakdur, demak yo'q.

Ma'lumki, 1476-77 yillar Alisher Navoiy Jomiyga qo'l berib naqshbandiylik sulukiga rasman kirishi vaqtি bilan belgilansada, aslida Navoiy e'tiqodidagi uzoq evolyusiyaning rasmiy natijasi bo'lgan.

Chunki, Navoiy «ota masobasida» bo'lgan, «tasavvufda tab'i xo'b» Sayid Hasan Ardasherni pir va ustoz sifatida e'tirof etib, uning xonadonida bo'lib turadigan oriflar majlisining muntazam ishtirokchisi bo'lgan. Ana shu boisdan ham Navoiy "Holoti Sayyid Hasan Ardashe" asarida: "Ul jumladin biri Maylono Boyazid Puroni erdi va Hazrat Bahovuddin Umar (quddisa sirihu) erdi, Hazrat Xoja Abu Nasr Porso (rahmatullohu taolo) va Xoja Muhammad Kusaviy (quddisa sirihu) va Shayx Ziyoratgohiy⁶ (alayha

⁶ Ўша даврдаги таникли шайх ва дарвешлар. Улар нақшбандия бузургларидан бўлиб, Саъдулдин Кошғарий яқинлари хисобланганлар.

rahma) va zamonning mashoyix va darveshlarining aksarining mulozamatlarig‘a yetib, suhbatlarig‘a musharraf bo‘lub, maxsus iltifot va nazarlar toparlar erdi. Chun o‘zlaridag‘i faqru fano tariqi akmal vajh bila zohir erdi, bu toyifaning so‘zlarig‘a tab’lari muloyim. Mazkur bo‘lg‘on azizlar dag‘i alarning suhbatin tilar erdilar va alarning muddaosyg‘akim, tengri yo‘lig‘a kirmak, erdi, balki intizor tortar erdilar”⁷-deb yozgan edi.

Alisher Navoiy nafaqat juda katta adabiy merosi, balki chuqur falsafiy va ma’rifiy, ijtimoiy, axloqiy qarashlari va fikrlari bilan mashhur.

Navoiy asarlarida o‘zining Inson, borliq, tabiat, mutlaq vujud va ular orasidagi munosabat va shuning bilan birga jamiyat va unda har bir shaxsning tutgan o‘rni, axloq va odob haqidagi mulohazalarini aks ettiradi. Navoiy o‘z asarlarida oddiy shoir emas, balki inson va hayot haqida juda ko‘p mushohada yurituvchi donishmand faylasuf qiyofasida namoyon bo‘ladi. Oybek Navoiy dunyoqarashiga doir maqolasida: «Uning butun ijodiyoti boy falsafiy mazmun bilan sug‘orilgan. Uning ijodiyotining ideya jihatidan shunday to‘liqlikka ega bo‘lishi uning asarlariga juda katta kuch bag‘ishlaydi va shoirning badiiy fikrning doirilari sarasiga qo‘sadi», -degan edi.⁸

Ma’lumki, Navoiy o‘z davrining yirik shoiri, naqshbandiya tariqatiga mansub shayx Abdurahmon Jomiy bilan pir muridlik munosabatida bo‘lgan, tariqatga rasman qabul qilingan edi. Tasavvuf ta’limoti bilan bevosita bog‘liqligi uning dunyoqarashi va shundan kelib chiqqan holda asarlari g‘oyalarida ham o‘z aksini topgan edi. Qolaversa, Navoiy hali bolaligidayoq Attorning «Mantiq ut-tayr» asaridan qattiq ta’sirlangan, bu esa uning o‘z davridagi diniy-falsafiy ilmlarni katta qiziqish bilan o‘rganishiga olib keldi. Ana shu omillar Navoiy ijodiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan edi.

⁷ Алишер Навоий. Ҳолоти Сайид Ҳасан Ардашер. www.ziyouz.com кутубхонаси. 7-бет
⁸ Ойбек. Асарлар. 9-жилд. - Тошкент, 1974. - 121-бет.

Navoiy she’riyatning Shark adabiyotidagi barcha janrlarida salmoqli ijod qildi. Ularga yangicha ruh, ma’no, mazmun olib kirdi. Oybek Navoiyning adabiyotdagi yangiligi haqida gapirar ekan, o’sha davr va undan burunroq ham adabiyotda sof formalizm hukmron bo‘lgani, asarlarning mazmuni emas, balki tashqi ko‘rinishiga e’tibor berilgani haqida yozadi. Olim Navoiyning o‘zbek adabiyotidagi xizmatini faqat o‘zbek tilining tantanasi uchun emas, balki adabiyotdagi hokim formalistik oqimga ham qarshi kurashganlikda ko‘radi. «Navoiy uchun poeziyada eng muhim shakl emas, mazmundir»-, deydi Oybek.⁹ Navoiy o‘zigacha bo‘lgan o‘zbek va forstojik adabiyotining an’analarini o‘zlashtiradi va ularga yangiliklar kiritadi. Ayniqsa, g‘azalchilik sohasida yangiliklari juda yuksak ahamiyatga egadir. Ma’lumki, Navoiygacha bo‘lgan davrda o‘zbek g‘azalchiligida ko‘zga ko‘ringan yetakchi mavzu bu ishq muhabbat mavzusi edi. Umuman, o’sha davr ilmiy adabiyotlarida g‘azalga berilgan ta’riflarda bu janrning asosan ishqiy mavzuda bo‘lishi va ularda oshiq bilan ma’shuqa o‘rtasidagi munosabatlar tasvirlanishi haqida gapiriladi. Bundan tashqari o‘zbek g‘azalchiligida sekin-asta rind, orif obrazlari ham ko‘zga ko‘rina boshlagan edi. Forstojik g‘azalchiliqi esa mavzu borasida ancha yutuqlarga erishgan va unda uch asosiy lirik qahramon – oshiq, rind va orif obrazi ko‘zga tashlanar edi.

Shu o‘rinda biz Navoiy dunyoqarashida din va tasavvuf masalasiga oydinlik kiritish uchun irfon, tasavvufga to‘xtab o‘tishni joiz bildik.

Garchi tasavvuf ta’limoti bevosita Islomning mag‘zida shakllanib, rivoj topgan bo‘lsada, uni rasmiy din bilan aynan bir narsa tarzida tushunmaslik kerak. Din Qur’oni karimning Zohiriy, ya’ni ko‘pchilikka tushunarli ma’nolari doirasida amal qiladi.

Tasavvuf Qur’oni karimning botiniy, ya’ni faqat xos-alohida

⁹ Ойбек. Асарлар. 9-жилд. - Тошкент, 1974. - 121-бет.

kishilargagina tushinish nasib etadigan ichki nozik ma'nolari bilan ish ko'radi. Aql-idrok, montiqiy tafakkur bilan Zohiriy ilmni o'rganish mumkin. Biroq botiniy ilm uchun mantiqiy tafakkurning o'zigma yetarli emas.

Shuning uchun Zohiriy ilm egasi,-olim, botiniy ilm egasi-orif deyilgan. Botiniy ilm «irfon» ham deyiladi. «Olim kim-u, orif kim? Ilm nima-yu, irfon nima?» Adabiyotshunos Muhammadjon Imomnazar masalani ana shu tarzda qo'yib, bu savollarga, jumladan, shunday javob beradi. «Tasavvuf haqidagi suhbat ana shu yerdan boshlanadi. Biz bilim manbai aql deb hisoblaymiz, sufiy bilim manbai ishq deb hisoblaydi. Chunki ishq intilish tug'diradi, aql faqat nazariy mushohadaga tayansa, mantiqiy bilimlar majmundan kelib chiqsa, ishq insonning butun tabiatini, shuurini ishga soladi, unda ko'zning va quloqning tajribasigina emas, insonning butun ruhiyati va moddiyati tajribasi bir nuqtaga jamlanadi. Biz bilgangina emas, hali bilmagan, aniq tasavvur etmagan omillar ham ishga tushadi». Xullas, muallif to'g'ri ta'kidlaganidek, ilmi botin, ya'ni tasavvuf «ilohiy ilhomga tayanadi».

Ammo tasavvuf yo'lini tutish uchun avval Komil musulmon bo'lish, shariatning barcha shartlarini bekatu ko'st bajarish zarur. Yana shuni aytish kerakki, avvalo, dinning o'zi odam dahriylik targ'iboti bizning tor tasavvurimizda badnom qilib shakllantirgan din tushinchasidan tamoman farq qiladigan go'zal bir ma'vo.

Tasavvufning boshqa ayrim sof falsafiy ta'limotlardan bir farqi shu ediki, u kishilarni bevosita o'z g'oyalariga amal qilishga undar edi. Boshqacha aytganda, tasavvuf bir guruh odamlar uchun falsafiy ta'limotgina emas, bevosita kun kechirish tarzi, demakki, kundalik mashg'ulot edi. Turli davrdagi xilma-xil ko'rinishlari, tariqatlari, tizimlaridan qat'i nazar, tasavvuf, umuman olganda, insonni ruhan kamolga etkazish nazariyasi edi.

Bu nazariyaga ko'ra, insonni Xudo o'ziga o'xshatib yaratganmi, Ollohnning bu olamni paydo qilishdan ko'zlagan bosh maqsadi ham, aslida,

inson ekanmi, demak, inson Tangrining bu muruvvatiga shukronalar aytib, o‘zini batamom Ollohga bag‘ishlashi, buning uchun esa o‘zini unga loyiq darajada poklashi-kamolga yetkazishi kerak. Ana shunday o‘zini oliv maqsadga chog‘lagan, jismini unitib, ruhini Allohga yetar darajada poklagan, jism ehtiyojlar tufayli paydo bo‘ladigan jomiki insoniy illatlardan farig‘ qilgan kishilar insoni komil bo‘lganlar. Tasavvufiy oqidaga ko‘ra, komil insonlar pirovardida, shubhasiz, Alloh vasliga musharraf bo‘ladilar, ruhan Tangri bilan birlashib ketadilar, vahlat, ya’ni birlikka erishadilar. Ajdodlarimiz ichidan bunday komil insonlar ko‘p o‘tgan «Xo‘sh ularning boshqalarga, aytaylik, siz bilan bizga nima daxli bor?». Gap shundaki, Odam Ato nasli ichidan shunday komil insonlarning yetishib chiqqanligi nainki bir xalq yoki million-million, borinki, milliard-milliard odamlar, balki butun bashariyatning buyuk baxti, mislsiz boyligi. Tasavvuf aqidasiga ko‘ra: “Jumla-yu mavjudod odamzodga shuning uchun majda qiladiki, odamlar orasida komil inson bor. Bas, jumla-yu odamzod komil inson tufayli sharaflidir. Mavjudod ichra komil insondan ko‘ra ulug‘roq va donoroq narsa yo‘q, chunki komil inson eng pastdan eng yuqorigacha martabalardagi mavjudodlarning xulosasi va qaymog‘idir va farishtalar, ruhoniy mavjudodlar va arish kursi, samovatu kavokib-hammasi komil inson xizmatidadirlar va hamisha komil inson tegrasini tavof qilurlar va komil inson ilm mazharidir (ko‘rinishidir), komil inson ilohiy zot (ya’ni Xudo) sifatlarning ham mazharidir”. Xudodod bir qudratga ega bo‘lishi mumkinligi haqida birgina Navoiy asarlarining o‘zida ham talay voqealar, hodisalar, hikoyatlar va rivoyatlar bor.

Tasavvufshunos olim N.Komilov “Tasavvuf” kitobida Ulug‘ shayx Junayd Bag‘dodiyning «Xulqun karimun yazharul karama fi az-zamon ap-karim min rajulin karim bayna qavmin kirom» ya’ni: shunlay bir karim xulqki, u karimlan karim zamonda karim qavm aro karim yerdan hosil bo‘lur

so‘zlarini keltirib: “Mana, sizga tasavvufning ta’rifi! Demak, butun mohiyat karam va karamliqdadir. Junayd karam va karomatni juda keng ma’noda olib qaraydi. Bu tushuncha orqali u go‘yo orzudagi bir olamni ta’riflagan. Ya’ni: shunday bir zamon bo‘lsaki, unda yashayligan odamlar karamli kishilardan iborat bo‘lib, barchasining xulqu atvori ham karamli bo‘lsa. Ilohiy karamdan insoniy karamga va insoniy karamdan yana ilohiy karamga qarab borish. O’n sakkiz ming olamni Karam vobastaligi va garmoniyasidan iborat, deb anglash. Karomat va kashfning so‘fiyona ma’nosi ana shunday keng. O‘rnii kelganda aytaylikki, Parvardigorning bir nomi ham Karimdir. Allohga nisbatan Karimi Korsoz, ya’ni barcha ishlarni Yaratuvchi Karim ham deydilar”¹⁰-deb yozadi. Demak, tasavvuf safo-pokizalik haqidagi ilmdir. Poklanishning ma’nosi esa keng. Inson nafaqat shaxsiy gigiena, balki butun vujudi bilan halollik, rostgo‘ylik, sidqu sadoqat kabi sof, yetuk, komil insoniy fazilatlar egasi bo‘lib, buni o‘z tabiat — xislatiga aylantirishi kerak ekan.

Alisher Navoiy islam dini aqidalar va ahkomlarini, irfon va tasavvufni shunday tushungan, zohiran va botinan shunga amal qilgan. Alisher Navoiy ijodi Qur’on oyati karimalari bilan zich aloqadadir. Navoiy poeziyaning bosh vazifasi Allohnini madh etishdan iboratdir. Allohnini vafq etish, Allohnini zikr qilish payg‘ambarlardan merosdir. Dovud (alayhissalom) tasbeh aytganida, tog‘u toshlar, qushlar ham Allohga tasbeh aytishgan. Zakariyoni (alayhissalom) kofirlar daraxt bilan arralab tashlashganida ham, Allah zikrini aytishdan to‘xtamagan. Ayub payg‘ambarni sinash uchun Allah uning badaniga yara toshtirib yuborgan. Shunda ham Ayub payg‘ambar: «Allahim, tilimga yara toshtirmagin, toki zikringni aytolmay qolmayin», deb iltijo qilgan.

Ma’lumki, tasavvufda Allah jamoliga yetishish, Borliq tuzilishi, Allah

¹⁰ Комилов Н. Тасаввуд. –Тошкент. «Movarounnahr» - «O‘zbekiston». 2009. 284-бет

va inson o‘rtasidagi munosabatlar tizimi haqidagi bilimlarni sufilar ikki yo‘li orqali egallanishi qayd etadilar. Birinchisi «Jazba», ikkinchisi «Suluk» deb ataladi.

Jazba yo‘nalishi o‘z ixtiyorini qo‘ldan bergen oshiqlik kismati hisoblanadi. Bu yo‘lga inson o‘z istagi bilan kira olmaydi. U muayyan bir komil pir tomonidan muroqaba orqali rom etilishi yoxud to‘g‘ridan-to‘g‘ri Allah jazbasiga nishon bo‘lishi mumkin. Keyingi holatni boshdan kechirganga majzub deyiladi. Bunday odamlar bir sabab tufayli Allah ishqiga mubtalo bo‘ladilar va butun inon-ixtiyorlarini qo‘ldan beradilar. Majzublar atrofdagilarga butunlay beparvo, dunyo ishlariga befarq bo‘lib qoladilar. Ular Allahni ko‘rish va u bilan birga bo‘lish istagida Ilohiy haqiqatni anglashga, o‘z ma’rifatini oshirishga jiddiy harakat qila boshlaydi. Ular kamolot kasb etish yo‘lida bir pirga bog‘lanib qolmaydilar. Ular turli mashhur pirlarga murid tushib, ularning bor ilmlarini egallahsga harakat qiladilar, so‘ng yanada kuchliroq pirlar tomon oshiqadilar. Kamolot maqomlarining ba’zi pillapoyalarida ularga ustoz pirlarning hojati qolmaydi.

Ikkinchisi suluk yo‘li bo‘lib, muayyan pir rahnamoligida qat’iy intizomga asoslangan tarbiya yo‘lidir. Unda mistik bilish, riyozat chekish, nafsni o‘ldirish, tun-kun bedorlikda ibodat bilan mashg‘ul bo‘lish, faqat zikr va murokaba natijasida yuzaga chiqariladi. Solih pir tarbiyasiga kirar ekan, mashoyihlar kayd etganidek, o‘zini «gassol qo‘lidagi murda» singari tasavvur qilishi va pir o‘gitlarini so‘zsiz bajarishi lozim bo‘ladi.

Demak, Navoiy birinchi yo‘lni tanlashi mumkin emas edi. Shuning uchun u ikkinchi yo‘lni tanlaydi va tasavvufning birinchi maqomi tariqatni 9ta maqomatini to‘liq bajaradi. Shu boisdan ham Alisher Navoiyning niyati oddiy insonlarga insoniylikning ilohiy mohiyatini tushuntirib berish, ularni og‘ir sinovlardan o‘tkazib, komil inson darajasida ko‘rish edi.

Xullas, Navoiy dunyoqarashining shakllanishi va hayoti, ijodining

mazmun-mohiyatiga aylanishida islom dini, aqidalari, ahkomlari, irfon, tasavvufning ta'siri juda kuchli bo'lgan. Bunga, ta'kidlaganimizdek, davr, oila muhiti, saroyga yaqinligi, atrofidagi mashhur, ulug' siymolarning rag'batisi muhim rol o'ynagan.

1.2. Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari. Ma'lumki, Davlatshoh Samarqandiy Alisher Navoiyni «Mir Nizomiddin», ya'ni «dinning nizomi - qonuni» deb beziz ulug'lamagan. Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida, xususan, «Xamsa» dostonlarining muqaddimalarida Aplohga hamd, payg'ambarga na't, munojot va rasululloh (s.a.v.) madhining mavjudligi fikrimizni dalolatlaydi.

Biz bu faslimizda Alisher Navoiy shariat va tasavvuf ilmining chuqr bilimdoni bo'lganligini asoslovchi asarlarini ko'rib chiqamiz.¹¹

«Arba'in» («Qirq hadis») - hadislarning she'riy tarjimasi bo'lib, an'anaviy hamd va na't bilan boshlanib, uning muqaddimasi - «Sababi ta'lifi manzuma»da Navoiy ustozи Abdurahmon Jomiy sahih hadislardan 40tasini tanlab olib forsiy tilda «Arba'in» yaratganini, lekin turkiy kitobxon bu chashmadan bebahra ekanini aytib, Jomiyning ruxsati bilan shu 40 hadisni turkiy tilga tarjima qilganini yozadi:

Forsiydonlar aylabon idrok,
Oriy erdi bu naf'din atrok.
Istadirki, bu xalq ham bori
Bo'limgay par bu naf'din oriy.
Men demakni chu muddao aylab,
Ul ijozat berib duo aylab.¹²

Asar muqaddimasida Alisher Navoiy Jomiy o'z asarini hijriy 886

¹¹ Каранг: Иловадаги 1-расм

¹² Алишер Навоий. Арбаин. Матнни нашрга тайёрловчи Суйима Фаниева. –Тошкент: «Фан». 2000. 4-бет (Кейинги мисоллар ушбу манбадан олинди)

(milodiy 1486) yilda yaratganini, ustozidan ijozat olib asarni bir-ikki kun ichida tamomlaganini e’tirof etadi:

Bir-iki kunki ehtimom ettim.

Ko‘z tutardin burun tamom ettim.

Bu ma’lumot Alisher Navoiy «Arba’in» asarini Jomiy bilan bir davrda yaratgan degan xulosaga olib keladi. «Arba’in» Alisher Navoiy payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning hadislarini avval arab tilida beradi va uning tarjimasini she’riy usulda taqdim etadi.

Asarning asosiy qismi «Sizlardan hech biringiz o‘ziga ravo ko‘rgan narsasini birodariga ravo ko‘rmaguncha chin mo‘min bo‘lmaydi» degan hadis navoiyona talqini bilan boshlanadi:

Mo‘min ermastur. ulki iymondin

Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay.

Toki qardoshiga raeo ko‘rmas

Har nekim o‘ziga ravo ko‘rgay.

«Arba’in»da keltirilgan hadislar komil inson axloqi va ma’naviyatiga oid qarashlarni aks ettirgan. Bu hadislarda insonning hayot va jamiyatdagi vazifasi, insoniy fazilatlar navoiyona talqini ifoda etilgan. Jumladan, «Insonlarning eng yaxshisi insonlarga foydasi tegadiganidir» degan hadisni Alisher Navoiy shunday ifoda etadi:

Xalq aro yaxshiroq, deding kimdur?

Eshitib ayla shubha raf’ andin.

Yaxshiroq bil ani ulus arokim,

Yetsa ko‘prak ulusqa naf’ andin.

Navoiy, Hadisi Sharifga sharh orqali insonning halqqa, ulusga va jamiyatga xizmat qilishi ulug‘lamoqda. Shuningdek, Alisher Navoiy mashhur «Kurashda g‘olib chiqqan pahlavon emas, balki g‘azabi kelganda o‘zini yenga olgan odam pahlavondir» ya’ni kurashda kuch bilan g‘olib

chiqqan pahlavon emas, balki g‘azab otini jilovlay olgan inson pahlavondir hadisini shunday talqin qiladi:

Emas ul pahlavonki o‘z qadrin
Bosh uza eltibon nighun qilg‘ay.
Pahlavon oni bilki, yetsa g‘azab
Nafsi ammorani zabun qilg‘ay.

Bunda Navoiy insonni o‘z nafsi - g‘azabi ustidan hokimlik qilishga chaqirar ekan, kishi jahlga qul bo‘lib qolishdan saqlanishi, kechirimli bo‘lishi kerakligini eslatadi.

Navoiyning «Arba’in» asari inson ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilib, shoir asarning xotimada shunday deydi:

Erur ul arba’inning avvali hol,
Ayla bu «Arba’in» bila a’mol.

«Arba’in»ning umumiy hajmi 108 baytdir. E’tiborli tomoni shundaki, asar kirish (hamd va na’t) bilan boshlani, yakuniy qism 5 baytdan, asosiy qism shakl jihatidan qit’a janri singari juft misralar qofiyalanib, toq misralar ochiq qoldirilgan:

Tengridin rahm agar tama’ qilsang,
Avval o‘lmoq keraksen elga raxim.
Har kishikim ulusqa rahm etmas,
Anga rahm aylamas rahimi karim.

Navoiyning bu asari aruzning xafif bahrining xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf yoki maqtu’ (ruknlari va taqte’i: foilotun mafoilun failun yoki fa’lun — V — / V - V - / V V - yoki —) vaznida yaratilgan.

Ma’lumki, shoirning «Vaqfiya» asari 1481 - 1482 yillar oralig‘ida yaratilgan bo‘lib, uning davlat arbobi sifatidagi faoliyati vaqf qildirgan yerlari, qurdirgan binolari haqida ma’lumot beradi. Asar hamd, na’t va sulton Husayn Boyqaro madhi etilgan muqaddima bilan boshlangan.

Olimlar «Vaqfiya»ning asosiy qismini shartli ravishda ikki qismga bo‘ladilar mumkin:

1. Navoiyning sulton Husayn Boyqaro saroyida davlat arbobi sifatidagi faoliyati;

2. Navoiyning xayriya ishlari va vaqf qildirgan mulk, yerlari. Vaqfiya joylardagi idora usuli, xizmat lavozimlari, ularga belgilangan maosh, tartib-qoidalar bayoni.

Asosiy qismdagi har bil fasl muayyan tarzdagi muqaddima va xotimadan iborat. “Vaqfiya”da Navoiyning mamlakat obodligi va el-yurt farovonligiga oid fikrlari o‘z ifodasini topgan:

To hirsu havas xirmani barbod o‘lmas

To nafsu havo qasri barraftod o‘lmas.

To zulmu sitam joniga bedod o‘lmas.

El shod o‘lmas. mampakat obod o‘lmas.¹³

Navoiyning «Nazm ul-javohir» («Nazm javohirlari») asari uning shu yo‘nalishdagi boshqa asarlaridan farqli nasriy usulda yozilgan muqaddima va hazrat Alining ikki yuz ellik besh raqam ostida tartiblangan arab tilidagi o‘git-ansihatlarining turkiy tilda ruboiy janrida berilgan talqindaridan iborat. Asar hamd va na’t bilan boshlanib, unda so‘z, uning qudrati, inson yaratilishi bilan bog‘liq diniy-tasavvufiy qarashlar, asarning yozilish sabablari bayoni qilingan. Asarda shoir tomonidan berilagn har bir fikr sura va hadislardan parchalar keltirib isbotlab borilgan. Ularning ta’sirchanligini oshirish uchun Navoiy taronayi ruboiy janridan foydalanadi.

Muqaddimada Alisher Navoiy hazrat Alining o‘gitlarini she’rga solishni ancha vaqtlardan beri niyat qilganini, lekin bunga jur’at qila olmaganini, Husayn Boyqaroning «Risola»si bitgach, unga javob tariqasida

¹³ Алишер Навоий. Вакфия. www.ziyouz.com кутубхонаси. 15-бет

yozishga qaror qilganligini aytadi. Navoiyning «Nazm ul-javohir» asarining Husayn Boyqaro risolasiga javob tarzida yuzaga kelishida ma'lum bir ma'no bo'lib, bu hazrat Alining islom olamida tutgan yuksak o'rni bilan izohlanadi. Chunki asarda Husayn Boyqaro darajasi hazrat Alining maqomi bilan qiyos etiladi.

Eng asosiysi, Alisher Navoiy hazrat Alining o'gitlarini turkiy tilda amalga oshirishni maqsad qilib, turkiylarni bahramand qilgan. Shoir shohning saxovatini,adolatini mehr bilan ta'riflagach, hazrat Ali o'gitlari talqinlarini ruboiy tarzida berishini aytadi. Ruboilyarning tarona shaklida keltirilishida ramziy ma'no bor. Xususan, shohni ko'ratib turuvchi taxtining to'rt poyasi, Ka'batullohn ni biz to'rt devori, falakning to'rtinchı qavati quyoshning maskani:

Har birini to'rt durri shahvor degil,
To'rtunchi falakda mehr zarkor degil.

Rub'i maskunda Ka'bai osor degil,
Baytul muqaddasqa to'rt devor degil.¹⁴

Navoiy hazrat Alining o'gitlari «Nasr ul-laoliy» («Sochma durlar») deb atalgan bo'lsa, Navoiy o'z asarni «Nazm ul-javohir» («Nazm javohirlari») deya nomlagani aytib, bu sochma durlarni bir rishtaga - ipga javohir singari tizilganiga ishora qiladi.

«Nazm ul-javohir»ning asosiy qismi o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega. Dastavval hazrat Alining arab tilidagi falsafiy o'gitlari, keyin esa ularning ruboiy shaklidagi navoiyona talqini beriladi. To'g'rirog'i, Alisher Navoiy to'g'ridan-to'g'ri tarjimani emas, balki badiiy jihatdan boyitilgan fikriy talqinni taqdim etadi. Adabiyotshunos M.Rajabova «Nazm ul-javohir»ning yaratilishiga yana bir sabab sifatida hazrat Ali qabrining

¹⁴ Алишер Навоий. Назм ул-жавохир. www.ziyouz.com кутубхонаси. 15-бет
(Изоҳ: кейинги мисоллар шу манбадан олинди)

Balxda ekani va uni tahqiq etishda Alisher Navoiyning shaxsan o‘zi qatnashganini keltirib o‘tadi.¹⁵

Asardagi ruboiylar mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, ularda hayot mohiyati, do‘slik va sevgining ulug‘vorligi, insoniylikning qadr-qimmati haqidagi nodir fikrlar o‘rin olgan. Xususan, hazrat Alining «Do‘stlarni ziyorat qilish muhabbatni oshiradi» degan o‘gitini Navoiy shunday talqin etadi:

Har kimki habibing o‘lsa evrul boshig‘a,
Mahv o‘l yuziga, jonni fido qil qoshiga,
Tosh ursa, ravoningni tufayl et boshiga,
Tajdidi muhabbat angpa bormoq qoshiga.

Alisher Navoiy hazrat Alining fikrini talqin qilish barobarida bu fikrni to‘ldirib, ta’sir quvvatini oshirayapti: «Kim do‘sting bo‘lsa, uning boshiga aynan ya’ni har bir xayolu o‘yidan xabardor bo‘l, diydori uchun qoshiga borish uchun jon fido qil. Agar tosh ursa ham, unga o‘zingni bag‘ishla, uning qoshiga borish muhabbatni ziyoda qilishini angla!»

Hazrat Alining «Kishining ulug‘ligi uning himmatidan bilinadi» degan fikrini Navoiy:

Har kimsaki iqbol aning yovardur,
Har yonki yuz ursa, himmati rahbaridur,
Himmat duri faxr tojining gavharidur,
Chun himmati odam o‘g‘lining sarvaridur-,
tarzda sharhlaydi.

Xullas, Alisher Navoiy «Nazm ul-javohir» asarida o‘zining dunyo va hayot haqidagi falsafasini yuksak badiiy mahorat bilan namoyon qiladi.

¹⁵ Қаранг: М.Ражабова. «Назм ул-жавоҳир» тарихига оид муҳим манба// Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). - Тошкент: Ўзбекистон, 2011. -Б .72-75).

«Siroj ul-muslimin» («Musulmonlar nuri») Navoiyning sof diniy yo‘nalishdagi asaridir. U islom dini ahkomlarini yoritishga bag‘ishlangan. Asar masnaviy shaklida yozilgan. Hajmi 197 bayt. Asar hamd va na’t, kitobning yozilish sababi, islomga oid fiqhiy va aqidaviy masalalar sharhi hamda xotimadan iborat.

Alisher Navoiy muqaddimada Allohga hamd va payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga salot va salomlarini yo‘llab, undan keyin kitobning yozilish sababiga o‘tadi. Dastlab sulton Husayn Boyqaroga hurmat izhor etib, bir voqeani hikoya qiladi. Hikoyada shoh majlislaridan birida bir nuktadon inson Husayn Boyqaroga: «Navoiyning she’rlari juda ajoyib, undan bahramand bo‘lgan odam yana bahra olmoqni xohlaydi, lekin bundan ne foyda bor?» - degan ma’noda fikr gap aytadi. Aslini olganda, Navoiy ko‘pdan buyon fiqh va aqidaga doir asar yozishni niyat qilib yurgan. Biroq bunga fursat topolmayotgan edi. Bir ulug‘ inson Samarqanddan Hirotg'a Navoiy huzuriga kelib, piri murshid Xoja Ahror Valiyning diniy masalalar sharhini yorituvchi kitob yozishni so‘raydi. Shundan so‘ng Alisher Navoiy katta ishtiyoqbilan asar yozishga kirishadi:

...Chu so‘rdi Iso anfosi bu damni,
Ham ul dam azmig‘a yo‘ndum qalamni...¹⁶

Alisher Navoiy «Kitob nazmining sababi» qismida aqida sharhi, farz, vojib, sunnat haqida yozishini bayon etib, bundan ahli musulmonlarga foyda bo‘lishini aytadi:

...Ham etkaymen burun sharhi aqoyid
Ki, islom ahlig‘a bergay favoyid.
Yana ham farz, ham vojib, sunan ham,
Neki oriz bo‘lur yaxshi, yomon ham...

¹⁶ Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. Матнни нашрга тайёрловчи Суйима Фаниева.- Тошкент: Фан. 2000. 3-бет

«Siroj ul-muslimin»ning asosiy qismida Navoiy dastlab aqoid hamda shariat hukmlari sharhiga to‘xtalib, islom ahkomi ikki qism: aqida va amal (shariat)dan iborat ekanligin, aqida pok bo‘lmasa, amalning ahamiyati yo‘qolishini e’tirof etadi.

Alisher Navoiy iymon shartlari sifatida Aplohning yagonaligi va mavjudligiga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, payg‘ambarlarga, oxirat kuniga, taqdirga ishonish kabilarni birma-bir sanab o‘tadi. Shundan so‘ng Allohning sifatlarini bayon etadi. Navoiy e’tirofiga ko‘ra, mo‘min inson Allohning zamon va makondan munazzahxoli ekaniga, sherigi yo‘qligiga, uning bezavol ilmiga, eshitish va ko‘rishiga, kalomiga, taqdir egasi ekaniga ishonishi shartdir. Alisher Navoiy Allohning o‘xhashi yo‘qligini, uning qudrati har qanday jismdan xoli ekanligini, bandalar kabi ehtiyojmand emasligini uqtiradi. Isbot tariqasida «Sho‘ro» surasidagi 11-oyatni keltiradi. Keyingi bobda shoir islom aqidasi - qabr azobi, qabrdagi savol-javob, Sirot ko‘prigi, tarozi, do‘zax, jannat, rasululloh (s.a.v.) shafoati, nabiylar mo‘jizalari, avliyolar karomati haq ekanini ta’kidlaydi hamda kohinni¹⁷ tasdiq etish kufr ekanini ham aytib o‘tadi.

Alisher Navoiy islom aqidasi shartlari bayonidan keyin islom ahkomlarini yoritar ekan, diniy farzlar tahorat, g‘usl, namoz, zakot, ramazon ro‘zasi, haj bilan bog‘liq shariat hukmlarini batafsil bayon etadi.

Xotimada Navoiy manzumasi insonlar uchun foydali bo‘lishiga umid bog‘lab, musulmonlar dilini ravshan etsin niyati bilan kitobga «Sirojul-muslimin» («Musulmonlar quyoshi») deb nom qo‘yanini aytib o‘tadi.

«Siroj ul-muslimin» aruzning hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun mafoiylun fauvlun, chizmasi: V----- / V -----/V —) vaznida yozilgan.

Shoirning «Munojot» asari Allohga iltijo tarzida yaratilgan nasriy

¹⁷ Кохин - 1) исломгача бўлган динларда рухочий; 2) башоратчи.

asardir. Bu asar «Hamd», «Na’t» va «Munojot» deb atalgan uch qismdan iborat. «Hamd»da Allohnning buyukligi, abadiyliги, «Na’t»da payg‘ambarimiz rasuli akram ta’riflari ketirilgan. «Munojot» fasli shoirning Allohdan najot so‘rab qilgan iltijolari o‘rin olgan. Asarning har bir jumlesi Allohga murojaat bilan boshlangan. Asarda Navoiy o‘zini behad gunohkor, Yaratganni pok va akram (karamli), o‘zini cheksiz isyonkor hamda Xoliqni rahmli va mehribon deb atar ekan, ichki qofiya, tazod, ishtiqoq san’atlarining betakror namunalari shoir his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlik kasb etadi:

Ilohi, akram ul-akramin - sen va men - gunohkor.

Ilohi, arham ar-rohimin - sen va men tiyra ro‘zgor

Ilohi, agarchi jurmu isyondin o‘zga ishim yo‘q,

Ammo sendin o‘zga ham kishim yo‘q..¹⁸

Asari mohiyatan Haq vasliga tashna, oriflik maqomiga erishgan oshiqning hissiyotlarini o‘zida aks ettirgan. Janriy jihatdan nazm va nasr xususiyatlari namoyon. «Munojot»ning o‘ziga xos musiqiy ohangi, saj’ usuli mahorat bilan ishlatilganligi uning badiiy qiymatini oshirgan. Asar o‘zining g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan mumtoz adabiyotimizdagи shoh asarlar sifatida mashhurdir.

Navoiyning «Risolayi tiyr andoxtan» risolasi tirandozlik - kamondan o‘q otish fazilatiga bag‘ishlangan.¹⁹ Asardagi har bir fikrning sof diniy dalillar - hadis va rivoyatlar vositasida izohlangan. Shoir bunda kamondan o‘q uzishning qanchalik savobli amal ekanini asoslashga intiladi. Risolada bir nechta hadis va rivoyatlar keltirilgan. Jumladan: Hazrat Odam Ato alayhissalom shayton hiylasi tufayli jannatdan yerga tushirilgach, Allohnning amri bilan dehqonchilik qiladi - bug‘doy ekadi. Ammo qarg‘alar

¹⁸ Алишер Навоий. Муножот. Матнни изоҳ ва таржималар билан нашрга тайёрловчи Суйима Фаниева. – Тошкент: Камалак.1991. 3-бет

¹⁹ Алишер Навоий. Рисолаи тийр андохтан. www.ziyouz.com кутубхонаси.

ekilgan bug‘doyni kavlab yeb qo‘ya boshlagach, Xudoga munojot qiladi. Shunda Alloh kamon va o‘q yuboradi. Yoydan o‘q otishni Jabroil alayhissalom Odam Atoga o‘rgatadi. Odam Atoning qarg‘alarga otgan birinchi o‘qi tegmaydi, Jabroil alayhissalom tabassum qiladi, ikkinchi bor otilgan o‘q nishonga tegadi, shunda Jabroil alayhissalom o‘z tabassumini quyidagicha izohlaydi: «Agar ilk o‘qing nishonga tekkanida, qiyomatgacha hech narsa bolalaring qo‘lidan qutulmas edi». Alisher Navoiy o‘q otishni Xudoning lutfi, Odam Safiy alayhissalomning mo‘jizasi deb xulosa qiladi.

Mashhur shayxlardan Shafiqi Balxiy jon berish chog‘i o‘q-yoy olib o‘q otadi. Do‘satlari buni ko‘rib: «Shayx shifo topibdi», - deb xursand bo‘ldilar. Shunda shayx: «Umrim oxirlabdi, shunda bir yaxshi amal qilgim keldi. Biror amalni yoydan o‘q uzishdan ko‘ra yaxshiroq deb topmadim. Chunki o‘q otishda savob ko‘p», - deb izohlaydi.

Muhammad Payg‘ambar Rasululloh (s.a.v.) kamonchilikning fazilatini ko‘p aytdilar. Shunda sahabalar kamondan o‘q otishning savobini qancha miqdorda,-deb so‘radilar. Shunda u zot: «Agar kamonchilikning savobini aytsam, xalq tirikchilikni tashlab, kamondan o‘q otishga berilib ketadi. Bir soat o‘q otishning savobi ellik yillik toat savobi bilan tengdur. Agar kim o‘q otsa, Alloh unga jannatiylar savobini beradi, nishonga tegizsa, jannat eshigini ochib, bir burni unga ataydi», - deb javob beradi.

Muhammad Payg‘ambarimiz Rasululloh (s.a.v.) sahaba Sa‘d Vaqqosning o‘z farzandlariga kamondan o‘q otishni o‘rgatayotgani ustidan chiqdilar. Rasululloh tomosha qilib turdilar. Shu payt bir yigit kelib yoydan o‘q uzdi. Rasuli akram sallolohu alayhi va sallam xushnud bo‘ldilar. Sahobalar buning sababini so‘raganlarida: «U yigit kelganida gunohlari ko‘p edi, o‘q otdi - gunohlari to‘kildi, shuning uchun shodlandim», - deb izoh berdilar.

Ali (r.a.) goho yalang bosh va yalang oyoq o‘q keltirar edilar. Bir

kuni Sa'd Vaqqos o'q otar edilar. Jabroil alayhissalom keldilar. Rasululloh alayhissalom men uchun o'q ot dedilar. Shunda Jabroil alayhissalom men uchun ham Sa'd o'q otsin dedi. Sa'd Vaqqos o'q otdilar. Shunda rasululloh alayhissalom Xudoyi taolo nomi uchun o'q otgil dedilar. Sa'd o'q otdilar. Sahobalar nishonga borib, ikki o'qni topib, uchinchisini topolmadilar. Jabroil alayhissalom aytdilarki: «Yo Muhammad, u o'qni topmasinlar. Bu o'q jannatda Sa'd Vaqqos uchun yer olib turibdi».

Demak, Navoiy kamondan o'q otishning qanchalik savobli amallardan ekaniga asosiy urg'uni qaratadi. Bu bejiz emas, chunki o'rta asrlarda yurt himoyasi askarlarning fidoyi va jasurligi hamda bevosita qurollarni, ayniqsa, kamonni mahorat bilan ishlata olishi orqali ta'minlangan. Mazkur asar Vatan himoyasiga chog'langan yigitlarni o'z ishlarining Tangri va payg'ambar tomonidan sevilgan, ma'qul ko'rilgan amal ekanligiga e'tirofdir.

«Risolayi tiyr andoxtan» asari faqat diniy dalillardan iborat hamda bayon tilining sodda va tushunarligi, badiiy bo'yoqdor emasligi bilan xarakterlanadi. Bu asarning omma uchun maxsus bag'ishlangan.

Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat»²⁰ (to'liq nomi «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat» - «Mardlik xushbo'yliklarini taratuvchi muhabbat shabadalari») asari 1495 - 1496 yillarda yaratilgan. Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds» («Do'stlik tarovati») asarining ijodiy tarjimasidir.

«Nasoyim ul-muhabbat»ning tanqidiy matni Navoiy yashagan davrda ko'chirilgan nusxa asosida 1996 yili Turkiya (Anqara)da Kamol Eraslon yaratgan. Navoiyshunos olim H.Islomov 2011 yil mazkur asarning ilmiytanqidiy matnini yaratib nashr qildirdi. Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns» asarida 616ta fors-tojik shayxlari haqida ma'lumot keltirilgan. Hazrat

²⁰ Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. www.ziyouz.com кутубхонаси.

Navoiy bu ma'lumotlarni qayta ishlab, to'ldirib, hind va turkiy shayxlari hisobiga sonini 770 taga yetkazadi. Ulardan 35 tasi sufiy avliyo ayollardir.

Adabiyotshunos olim N.Ramazonov «Nasoyim»ning o'ziga xos xususiyatlariga doir» maqolasida²¹ «Nasoyim ul-muhabbat» va «Nafohat ul-uns»ni qiyoslar ekan, hazrat Navoiy tazkiraning kirish qismini tarjima qilmasdan o'zi yozganini aytadi.

«Nasoyim up-muhabbat» muqaddima (hamd, na't va asar yozilishi sababi, «Bu toifa muqaddima tamhidi», «Bu toifa a'molu af'oli va muomilatu riyozotidin ba'zini zikr qilmoq»), 770 shayx zikrini o'z ichiga olgan asosiy qism va xotimadan iborat.

Alisher Navoiy asarning yozilish sabablari haqida to'xtalar ekan, Jomiy bilan o'zining tazkirasi o'rtasidagi farqlarni aytib o'tadi. Unga ko'ra:

1. «Nafohat ul-uns»da Farididdin Attorning «Tazkirat ul-avliyo» asaridagi ba'zi avliyolar tushirib qoldirilgan, Navoiy esa ularni o'z tazkirasida zikr qilgan.

2. Jomiyda hind va turk mashoyix (shayx)lariga keng o'rinnajratilmagan, lekin hazrat Navoiy imkon qadar ularning barchasini o'z asarida aks ettiradi. Shuningdek, shoir «Nasoyim ul-muhabbat»da Abdurahmon Jomiy hamda uning zamondoshi bo'lgan valiy zotlar hayoti va faoliyatini ham yoritganini ma'lum qiladi.

Navoiy «Bu toifa sulukida muqaddima tamhidi» deb atalgan qismda inson yaratilishi sababi, Allohning hikmati, payg'ambarlar sayyidi Muhammad sallallohu alayhi va sallamning Haqqa habib ekanligi bilan bog'liq tushunchalarni bayon qiladi.

Alisher Navoiy rasululloh (s.a.v.)dan so'ng payg'ambarlik eshigi berkitilgan bo'lsa-da, mo'minlar pok e'tiqod, taqvo bilan Allohga do'stlik,

²¹ Рамазонов Н. «Насойим»нинг ўзига хос хусусиятларига доир / Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). - Тошкент: Фан, 2001.

valiylik maqomiga erishadi, chunki «Olimlar payg‘ambarlarning vorislardir», valiy zotlarning barchasi Alloh yo‘lida sobit bo‘lgan zotlardir, ular xalqni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi deb ta’kidlaydi.

Muqaddimaning «Bu toifa a’molu af’oli va muomilatu riyozotidin ba’zini zikr qilmoq» deb nomlangan faslida avliyolarning a’moli - amallari, af’oli- fe’l-atvori, muomilotu riyozati - muomalasi (xalq bilan munosabati) va Haq yo‘lida chekadigan mashaqqatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Unda valiy zotlar bilan bog‘liq luqma halolligi, shariatga amal qilish, imon kalimasini ruhga singdirish, besh vaqt namoz o‘qish, zakot berish, ro‘za tutish, haj qilish, odob, hilm, taqdirga rizo bo‘lish va sabr qilish, sidq-rostgo‘ylik, riyozat chekish kabi amallar keltirib o‘tiladi. Bu fazilatli amallar oddiy odamlarnikidan farq qiladi. Masalan, imon kalimasi - kalimai shahodatni hamma chin dildan aytgani bilan, valiylar bu kalomni aytib hushlarini ham yo‘qotishlari mumkin. Yoki shariatda zakot molning qirqdan bir qismini faqirlarga berish bilan amalga oshirilsa, valiylar qo‘lidagi narsaning ortig‘i bilan ehson qilishni zakot deb bilishlari haqida ibratli fikrlar keltiriladi va bunga shayx Abu Bakr Shibliyning bir faqihga bergen javobi misol qilib keltiriladi. Shunindek, luqma halolligiga erishish uchun har bir valiy zot o‘z kasbi-koriga ega bo‘lgan. Masalan, shayx Abu Said Xarroz, Xoja Abdulloh Ansoriylar etikdo‘zlik, shayx Muhammad Sakkok pichoqchilik, shayx Abu Hafz Haddod temirchilik bilan mashg‘ul edilar.

Islom aqidasiga ko‘ra, mo‘jiza va karomat haqdir. Mo‘jiza payg‘ambarlar tomonidan Allohnинг qudrati bilan amalg‘a oshiriladigan va inson aqli yetmaydigan hodisalar bo‘lsa, avliyolarning bu kabi ishlari karomat deyiladi. Bular umumiy xavoriqi odat - g‘ayriodatiy, g‘ayritabiyy ishlar deb ataladi. Masalan, duolar ijobati, g‘ayb sirlaridan ogoh bo‘lish, inson ko‘nglidagi o‘yni anglash, suv va taomsiz ro‘za tutish, bir lahzada dunyoning u chetidan bu chetiga borib qolish kabi oddiy inson aqliga

sig‘maydigan g‘ayri-tabiiy holatlar avliyolarga xos bulib, ularni ko‘p oshkor qilmaslik valiyning yuksak maqomini bildiradi.

Asarda shundan so‘ng bevosita valiylarning nomlari va tarjimai holi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltiriladi. Nomi zikr etilgan ilk valiy zot-avliyolar sulton deb ulug‘langan Uvays Qaraniydir. Uvays Qaraniyning payg‘ambarimiz sallallohu alayhi va sallamga g‘oyibona oshiq bo‘lgani, uning kuchli va mustahkam muhabbatи barcha islom ummati uchun ibrat hisoblanadi. Asarda avliyolarga doir ma’lumotlar turli hajmda. Ba’zilari haqida bir jumla bilan kifoyalanilsa, ba’zi shayxlar ta’rifiga keng o‘rin ajratilgan. Avliyolarning tarjimai holidagi ma’lumotlar muayyan mezonlarga asoslanmagan. Ayrim shayxlarning yashagan yillari, joylari, kasbi-korlari va hokazolar bilan bog‘liq ma’lumotlar batafsilroq keltirilsa, ba’zilarining faqat karomat yoki o‘gitlaridan parchalar beriladi.

«Nasoyim ul-muhabbat»da asosiy e’tibor valiy zotning amaliga qaratilgan. Har bir avliyo shariat hukmlarini so‘zsiz va itoat bilan ado etib, Haq vasli talabida mol-dunyo tashvishidan, o‘z borligidan mutlaqo voz kechishi shartdir. Bu dunyoga zarracha muhabbat qo‘yish Haq ishqiga soya soladi deb e’tiqod qilinadi. Asarda har bir avliyo haqidagi ma’lumotlar tarkibida arab tilidagi baytlar, hikmatli fikrlar berilgan.

«Nasoyim ul-muhabbat» tarkibida tilga olingan avliyolar orasida islomdagi to‘rt mazhab boshliqlari - imom A’zam, imom Molik, imom Shofe’iy, imom Ahmad ibn Xanbaldan tortib Muhammad G‘azzoliy, Bahouddin Valad, uning o‘g‘li Jaloliddin Rumiy, Rumiyning o‘g‘li Sulton Valad kabi buyuk zotlar haqidagi turli qiziqarli, ibratli hikoyalar berilgan. Bu avliyolar haqidagi ma’lumotlar tasavvuf tarixini o‘rganishda muhimdir.

Xullas, Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyil ul-futuvvat» asari shoirning yetuk mutasavvif olim sifatidagi faoliyatini ko‘rsatuvchi muhim manbadir. Navoiyning diniy yunalishdagi asarlarini

o‘rganish orqali uning dinga munosabati, e’tiqodi bilan birga uning islom ilmining yetuk bilimdoni, e’tiqodi butun, iymonli inson bo‘lganligiga ishonch hosil qilamiz. Bu esa buyuk gumanist va insonparvar shoir Alisher Navoiyning o‘z davri ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni nechog‘lik muhim bo‘lganini belgilovchi omildir.

II-BOB. NAVOIY IJODIDA ISHORA SAN'ATI VA MA'RIFIY

G‘OYALAR TALQINI

2.1. Navoiy she’riyatida ishora san’ati. Mashhur sharqshunos Shibliy Nu’moniy “She’r ul-Ajam” kitobida shunday yozadi: “G‘arb ham o‘z adabiyoti latofati bilan faxrlanadi, ammo bu adabiyot namoyandalari o‘z fikrlarini to‘liq bayon etish uchun eng kamida uch-to‘rt misra yaratishga majburdirlar, holbuki Ajam she’riyati tarixida bir misra yoki baytga ikki-uch va hatto undanda ko‘proq ma’nolarni singdirish odatiy holga aylangandir”. Sharq shoirlarining so‘z san’atida bunday ulkan muvaffaqiyatga erishganliklariga, bir tomondan, tilning ichki imkoniyatlari va so‘zlarning ko‘pma’noligi, ikkinchi tomondan, tasvir vositalari, adabiy usul va she’riy san’atlardan mahorat bilan foydalana olganliklari sabab bo‘lgan.

Arab adabiyotshunosi al-Askariyning (XI asr) mashhur iborasi bor: “She’riyatda eng muhimi—yangi mavzu topish emas. Chunki bunga arab ham, ajamiy ham, shaharlik ham, ko‘chmanchi ham bir xilda qodir. Muhimi – qay tariqa ifodalash”.

So‘zni “qay tariqa ifodalash”da juda qo‘l keladigan, ammo adabiyotshunosligimizda hali yaxshi o‘rganilmagan she’riy san’atlardan biri – *ishora san’atidir*. Ishora arabcha so‘z bo‘lib, barmoq bilan biror narsani ko‘rsatmoqni anglatadi. “Navoiy asarlari uchun qisqa izohli lug‘at”da bu so‘z “imo”ning ma’nodoshi sifatida izohlangan. Imo, ishora va g‘amza kabi ma’nodosh so‘zlar ma’lum jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lsa ham, aslida ular o‘rtasida muayyan farq mavjud: imo yuz ifodasi va bosh harakati bilan amalga oshirilsa, g‘amza ko‘z va qoshni noz-karashma, inkor va tasdiq, ruhlantirish va mazax-masxara qilish kabi ma’nolarni paydo qilish uchun harakatga keltirishni anglatadi.

Badiiy adabiyotda ishora mo‘jaz va ixcham so‘zlarga keng ko‘lamli ma’nolarni singdirish va bu ma’nolarni tafakkur qilish hamda anglash uchun

ularga nozik belgi berish vazifasini bajargan. Badiiyat ilmiga bag‘ishlangan risolalarda bu san’at ham Qur’onda istiora, tamsil, tajnis, tavsif, mutobaqa, iltifot kabi keng qo‘llanilgani qayd etiladi. Jumladan, al-Askariy bu san’atni sharhlar ekan, ushbu san’at Qur’on oyatlari negizida shakllanganligini ta’kidlab, Qur’on oyatlaridan misollar keltiradi. Mazkur san’at turidagi qisqa so‘zlar bilan katta ma’nolarni ifoda eta olish imkoniyati borligi uchun ham mumtoz shoirlarimiz diqqatini jalb etgan. Ular bu ma’naviy san’at turini ham rivojlantirib, falsafiy-dunyoviy va diniy-irfoniy ma’nolarni ifoda etishda keng qo‘llaganlar.

Masalan, Navoiyning quyidagi baytini ko‘zdan kechiraylik.

Ey, Navoiy, istasang bargu navo bu bog‘ aro,

Guldek o‘l roki²² kecha, bulbul kabi bedor subh (3.46)

Mazkur baytdagi bog‘, barg, navo, gul, bulbul, subh so‘zлari lirik asarlarda keng qo‘llaniladi. Faqat roki’ so‘zi badiiy adabiyotda kam uchragani, aslida diniy adabiyotga mansubligi bois, birinchi qarashda yuqoridagi so‘zlar silsilasiga mutanosib ko‘rinmaydi[4]. Va ana shu “nomutanosiblik” o‘quvchini baytda yashiringan ma’noni izlab topishga undaydigan ishoradir. Demak, “roki” so‘zi ushbu baytda ishora-belgi vazifasini o‘taydi.

Barg—yaproq, navo—kuy, ohang; bu so‘zlar yagona ibora (bargu navo) shaklida kelganda ko‘chma ma’noda yo‘l ozig‘i ma’nosini bildiradi. Bog‘—dunyo ramzi. “Bu” ko‘rsatish olmoshi orqali shoир ma’noni yanada kuchaytirgan. Navoiy aytmoqchi, bog‘ – dunyodan o‘zing bilan biror narsa olib ketmoqchi bo‘lsang, kechalari quyoshni qo‘msab, egilib turgan gul kabi roki’—namozxon, tongda esa, haqiqiy matlubing visoliga erishmoq uchun bulbul kabi uyg‘oq va navosoz bo‘lishing kerak. Zero, “tongdagi Qur’on

²² Рокиъ сўзи арабча “ракаъа” феълидан олинган бўлиб, намозда эгилган кишига нисбатан айтилади.

qiroati farishtalar hozir bo‘ladigan vaqtadadir”. Shoir diniy-falsafiy ma’noni ifoda etish uchun tabiiy ramzlardan foydalanishi bejiz emas. Birinchidan, “adabiy asarning, jumladan, uning badiiy jihatining etukligiga asos voqeiylikdir. Bu o‘rinda voqeiylik deganda borliq taqozosi bilan sodir bo‘lishini nazarda tutamiz. Inson tabiatning bir bo‘lagi bo‘lgani uchun sog‘lom kishi ta’biga g‘ayritabiiy narsalar yoqmaydi. Shuning uchun kishi yaratgan narsa inson uchun foydali bo‘lishi va uning mijoziga muvofiq tushishi uchun u tabiat qonunlariga muvofiq bo‘lishi zarur” . Ikkinchidan, gulning roki’ bo‘lishi va ertalabki Qur’on qiroatining bulbul navosiga o‘xhashligi faqat zohiriy jihatdangina muvofiq bo‘lmay, balki bu unsurlar o‘rtasida ichki munosabat, botiniy uyg‘unlik ham mavjud. “Haj” surasining 18-oyatida shunday deyilgan: “(Ey, Muhammad), osmonlardagi va Yerdagi bor jonzot, quyosh, oy, yulduzlar, tog‘lar, daraxtlar va (barcha) jonivorlar hamda ko‘p insonlar (yolg‘iz) Allohga sajda qilishini ko‘rmadingizmi?” “Al-Isro” surasining 44-oyati ham shu mazmunda: “Yetti osmon, Yer va undagi bor jonzot Unga tasbih aytur. Mavjud bo‘lgan barcha narsa hamd bilan Unga tasbeh aytur. Lekin siz ularning tasbehlarini anglamaysizlar...” Bu holni, ya’ni butun Borliq o‘zining Parvardigoriga sajdada ekanligi, hamisha uning hamdi va tasbihida bo‘lganligini mushohada etish uchun qalb ko‘zi bino bo‘lishi kerak. Navoiy basirat ko‘zi bilan tabiatga nazar solib, undagi muayyan bir manzara bilan Insonning ruhiy kechinmalari o‘rtasidagi uyg‘unlik, mutanosiblik, o‘xhashlikni ko‘radi va yuqoridagi tabiiy manzara tasviri orqali chuqur falsafiy-irfoniy ma’nolarni bayon etadi. Yana bir misol:

*Ravza ashjori o‘tundur, gullari jonimg‘a o‘t,
Mumkin o‘lsa anda bo‘lmog‘liq dami dildorsiz.²³*

Mazkur bayt mashhur “Navbahor ayyomi bo‘lmish” g‘azalidan olingan. G‘azalni taniqli olim I.Haqqul baytma-bayt tahlil etib, qator

²³ Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. З-тум. Фаройиб ус-сигар. – Т.: Фан, . 1988.-Б.175.

g‘oyaviy-badiiy sir-asrorlarini ochib berishga muvaffaq bo‘lgan. Olim Navoiy nazarida “insoniy ishqning hosilasi Alloh sevgisi bo‘lganidek, haqiqiy ishqning mevasi olam va odamga muhabbat” ekanligini ta’kidlab, to‘rtinchi, ya’ni yuqorida keltirilgan baytda“zamin go‘zali emas, balki oliy go‘zallik ramzi hisoblanmish Yori azal haqida so‘z yuritilgan”, deb hisoblaydi.²⁴ Chunki, bu baytda bundan oldin kelgan uch baytdan farqli o‘laroq, jannat manzarasi oshiqning ruhiy kechinmalarini bayon qilish uchun qo‘llanilgan. Tazod qur’oniy qissani yodga soladi. Ishora va talmeh bir-biriga qorishib, shoirning asl muddaosini ravshanroq bayon etish uchun xizmat qiladi.

“Yori azal”ning oshiq shaydosi—Ibrohim Xalilulloh bilan bog‘liq ibratlari hodisa “Anbiyo” surasining 51-72 oyatlarida qisqacha bayon etilgan. Ibrohim(a) otasi-buttarosh Ozar va qabiladoshlarini yagona Allohga e’tiqod qilishga chaqiradi. Ammo ular Ibrohimning gaplariga qulq solishmaydi. Otasi uni bu yo‘ldan qaytarish uchun o‘zlarining yilda bir bo‘ladigan diniy marosimlariga olib bormoqchi bo‘ladi. Lekin Ibrohim(a) oyog‘i og‘riyotganini bahona qilib, bormaydi. Butxonadagi butlarni (katta butdan tashqari) parcha-parcha qilib, boltani katta butning bo‘yniga ilib qo‘yadi. Qabiladoshlari Ibrohim(a)ni so‘roq qilganida, u katta butni gunohkor, deb ko‘rsatadi. Ibrohimning haqli savol va ta’nalariga javob topa olmagan Namrud boshchiligidagi mushriklar ulkan o‘tin g‘arami hozirlashib, uning to‘rt tomonidan o‘t qo‘yadilar va Ibrohimning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, bir manjaniqqa solishib, olovga otadilar...

“Naqldurkim, o‘tqa yetmasdan burun Jabrail(a) kelib so‘radikim, hojating nedur? Ibrohim(a) dedikim, sanga hech hojatim yo‘qtur, anga kim hojatim bor, Ul voqifdur. Haq taolo maloikaga Ibrohim(a)ning sidqu

²⁴ Ҳакқул И. Ирфон ва идрок. – Т.: Маънавият, 1998. –Б.106.

tavakkulin ko‘rguzib, har oyinakim, o‘tni anga guliston qildi...”²⁵

Ilohiy Muhabbat ana shunday qudratga ega. Yolg‘iz Unga sig‘inib, suyangan, uni yagona Dildor, haqiqiy Yor deb bilgan kishi hech qachon marhamatidan benasib qolmagay. Haqiqiy muhabbat otashida kuygan oshiqlar uchun jamiyki olovlar “*salqin va omonlik*” bo‘ladi. Navoiy teskari qiyoslash yo‘li bilan Ibrohim(a) qissasiga ishora qilib, Allohning sodiq bandalariga muhabbatni nechog‘li ulug‘ ekanligini uqtirish bilan birga, yana bir irfoniy g‘oyani ilgari suradi: Oxiratda haqiqiy mo‘min banda uchun va’da qilingan jannatning o‘zi kamlik qiladi, chunki jannat ham dunyo kabi yaratilgandir. Asl maqsad – Haq diydori. Qiyomat kuni Alloh taolo o‘zining solih bandalariga o‘z jamolini ko‘rsatishga va’da bergen (*Jannatga kirguvchilar Alloh taoloni ko‘radilar*–Yunus surasi, 26-oyat). Haqiqiy oshiq ana shu damlar orzusida entikib yashaydi. Bordi-yu, o‘scha kuni Ma’shuqi azal diydoriga musharraf bo‘lmasa, jannat uning nazarida namrudiyl gulgandir. Do‘zaxiyalar uchun jannat eng buyuk armon bo‘lganidek, jannat ahli oldida uning “ko‘yi” ushalmog‘i qiyin bo‘lgan shirin bir istakdir:

Jannat ahlig‘a erur lahza ko‘yung orzu

Do‘zax ahli, o‘ylakim, jannatni qilg‘aylar havas.

Qur’on va hadisdagi ma’no va obrazlar olamidan ijodiy tarzda foydalanib, kontrast-teskari qiyoslash usuli bilan oyat va hadislardagi ma’no va mazmunlarning yangi qirralarini ochib berish va ularning shoirona talqini Alisher Navoiy ijodiyotida ko‘p uchraydi.

“*Man hadama qalbu mo‘minin faqad hadama baytallohi ta’olo*” (Kimki bir mo‘minning ko‘nglini buzsa, Baytullohni buzgan kishi kabi (gunohkor)dir) hadisi asosida hazrat Navoiyning quyidagi mashhur bayti yaralgan:

²⁵ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. Нубувват ва рисолат китоби, Т.:Шарқ, 2006. 26-бет.

*Kimki bir ko ‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Onchadirkim, Ka’ba vayron bo ‘lsa, obod aylagay. (18.77)*

Navoiy she’riyatida hayotiy haqiqatlar, falsafiy-irfoniy mulohazalar ko‘pincha ramz va ishoratlar, timsol va tashbihlar tilida bayon etilgan. Asrlar davomida tadrijiy rivojlanib, turli rang va ohang kasb etgan obrazlar hamda mazkur so‘z va istiorali iboralarning ma’no qatlamlari ko‘payishi muayyan bir bayt yo she’rda aynan qaysi ma’noda kelganini to‘g‘ri belgilash uchun faqat she’riy matnning ichki talabi yoxud bosh mohiyatinigina hisobga olish etarli emas. Buning uchun turli lug‘atlar, diniy, ilmiy, badiiy asarlarga ham murojaat qilishga to‘g‘ri keladi; ayni paytda, bu asarlardagi ma’lumotlarga tayanishda shoirning dunyoqarashi, e’tiqodi, ruhiy olamini ham hisobga olish zarur. Aks holda shoir ko‘zlagan asl maqsaddan uzoqlashib, zohiriyl va noto‘g‘ri xulosalar chiqarish hech gap emas. Misol tariqasida mana bu baytni olaylik:

*Talx maydin, soqiyo, topti chuchuk jonim hayot
Ey baso makruhkim, zimnida bir behbud erur.*

“Baqara” surasining 219-oyatida shunday buyurilgan: “Sizdan may(mast qiluvchi ichimlik) va qimor haqida so‘raydilar. Ayting: “Bularda katta gunoh va odamlar uchun (ba’zi) foydalar bor...”. Ko‘rinib turibdiki, baytning ikkinchi misrasi bu oyatning shoirona talqini sifatida vujudga kelgan. Yuqoridagi oyat va baytning birlamchi mazmuniga tayanib, xulosa chiqarish mumkinki, mazkur bayt rindona ohangga ega bo‘lib, Navoiy chog‘irni jonga darmon va hayot baxsh etuvchi ne’mat sifatida kuylagan va dalil sifatida yuqoridagi oyat mazmuniga ishora qiladi. Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham bor: ichkilik haqida Alloh taolo tomonidan uch marta oyat nozil bo‘lgan. Ularning birinchisi yuqoridagi oyatdir. Ikkinchisi “Niso” surasining 43-oyatida shunday deyilgan: “Ey, imon keltirganlar! Toki gapi rayotgan gaplaringizni (o‘zlarining) biladigan bo‘lguncha mast

hollaringda namozga yaqinlashmangizlar!”. Bu oyatlarda ichkilikning halol-haromligi haqida hech narsa deyilmaydi. Chunki islom kelgan davrda ichkilik ichish, qimor o‘ynash kabi illatlar jamiyatda chuqur ildiz etgan oddiy ish edi. Shuning uchun bular Qur’onda daf’atan harom qilinmadid-zotan bunday illatlarni faqat buyruq vositasida yo‘qotish imkonsizdir—balki, avvalo, odamlarga bu ishlardan keladigan foyda-zararni ko‘rsatish, so‘ngra munosabatlarini o‘zgartirish lozim bo‘ladi. Buyuk Qur’on harom narsalarni musulmonlarning qo‘lidan tortib olishdan avval, ko‘ngillarini poklab oldi. Keyinroq “Moida” surasining 90-oyatida ichkilik harom ekanligi haqidagi qat’iy oyat (hukm) nozil bo‘ldi: “Ey, imon keltirganlar! Albatta, may (mast qiladigan ichimliklar), qimor, but-sanamlar va (fol ochadigan) cho‘plar shayton ishidan iborat ifloslikdirki, undan chetlaningiz! Shoyad, (shunda) najot topsangiz.

Bu oyat nozil bo‘lgandan keyin ichkilik ichish, shuningdek, oyatda keltirilgan boshqa amallar haqida nozil bo‘lgan burungi hukmlar mansuxbekor qilindi. Musulmonlarning so‘nggi hukmga amal qilishlari farz. Navoiy bu hukmdan xabardor bo‘la turib, ichkilikni vasf etish mumkinmidi? Yo‘q, albatta. Navoiy “boda”si o‘zga bir mayxonadandir:

*Sen guman qilg‘ondin o‘zga jomu may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido. (18.19)*

Xoja Abdulloh Ansoriyning “Kashf ul-asror”ida mayning zararlari ko‘p, ammo foydasi ham borligidan xabar beruvchi oyatning irfoniy tafsirida shunday deyilgan: “G‘aflat ahli sharobi va uni ichganlarning oqibati oyatda qanday zikr etilgan bo‘lsa, shundaydir. Ammo, Ilohiy, Er yuzida shunday bandalaring ham borki, ma’rifat bodasidan sipqorurlar va muhabbat jomidan mastdirlar. Ul sharob haqiqatidan bo‘lak hech narsa yo‘q, chunki bu dunyo zindondir; ammo zindon bo‘lsa ham o‘tkinchi—foniy zindon erur. Har holda, hozir bo‘l (ya’ni ma’rifat sharobidan qudrat va imkoning boricha bahramand

bo‘l), ertaga ruh birlashuvi va hamda Habib va Muhib visolining abadiy damlari senga intizordir” .

Inson orzu-umid bilan tirik. U xohish-istiklarini ro‘yobga chiqarish uchun o‘ziga va ertasiga ishonib yashashi kerak. Aks holda, ruhiy tushkunlikka tushib, hayotda o‘z o‘mini topolmasligi hech gap emas... Tafakkur sohibi bo‘lmish insonning asosiy maqsadi–Mohiyatni anglash, Haqiqatga erishish (*Umr erur taqviyu toat uchun, Tengri buyurg‘onga itoat uchun*). Ammo mohiyatlar Mohiyati, haqiqatlar Haqiqatiga etish oson ish emas:

*Seni topmoq base mushkildurur, topmaslig‘ osonkim,
Erur paydolig‘ing pinhon, vale pinhonlig‘ing paydo.*

Izlanish yo‘lida “topmaslig” dan ruhi aftoda bo‘lgan oshiqning jonini, ma’rifatning “talx mayi” qutqaradi, uning hayotiga mazmun va lazzat baxsh etadi; ishonch hissini mustahkamlab, qat’iyat va umid bag‘ishlaydi. Shu sababdan, ma’rifat mayxonasining “durdakash”i holati hushyorlar va hushyorlikdan yuqoriroq maqomga egadir, deyish ham mumkin. Ushbu baytda belgi – ochqich vazifasini bajaruvchi so‘z “makruh”dir. Ko‘rib chiqqanimizdek, bu so‘zning “Baqara” surasidagi ichkilikning “katta gunoh va odamlar uchun foydalar bor”ligi to‘g‘risidagi oyatga unchalik aloqasi yo‘q. Imom al-Buxoriyning “Al-jomi’ as-sahih”ida ushbu hadisni o‘qiymiz: “Jannat makruh – qilinishi qiyin bo‘lgan narsalar bilan o‘ralgandir va do‘zax ishtiyoq olovini kuchaytiradigan narsalar bilan o‘ralgan”. Demak, ma’rifatning “talx mayi” (achchiq sharobi) ruhga hayot bag‘ishlaydi, abadiy orom topish maskani – jannatga yo‘l topishda yordam beradi. Navoiy talqinida, faqat ma’rifatli odamgina jannat ahlidan bo‘lishi mumkin. Jaholat va xudbinlikka mubtalo bo‘lgan kimsalar esa abadiy saodatdan benasibdirlar.

Shayx Abdulloh Ansoriy mastlik va mastlar haqida shunday deydi: “Mastliklarda tafovut bor va mast ham har xil bo‘ladi. Biri bodadan mast

bo‘lsa, boshqasi masti g‘aflat, biri mol-dunyo ko‘pligidan mast bo‘lsa, boshqa birov o‘ziga bino qo‘yan xudbinlik mayi mubtalosi. Bu mastliklardan eng zararlisi va jamiki qorong‘uliklarning asli—o‘ziga bino qo‘yan, takabbur kishining mastligidir... Xamr (ichkilik)dan mast bo‘lgan kishi qilmishidan pushaymon bo‘lib, oxirat jazosidan qo‘rqib yashaydi, yoxud Tangri marhamatiga umid bog‘laydikim, shoyad uning gunohlari ham kechirilar. Ammo o‘ziga bino qo‘yish havosiga mast bo‘lgan kishining ishi (oqibati) xatarli va Tangridan uzilish xavfi bir umrlidir...”

Ana shunday o‘zining qudratiga qattiq ishongan, xalq ta’biri bilan aytganda Xudodan qaytgan, takabburlik, manmanlikka giriftor bo‘lgan kishilarga qarata Navoiy yozadi:

*Qo‘y tavonolig ‘so‘zin, yod et ajal xorinki, bil,
Pashshalar nishi qoshinda notavone besh emas.*²⁶

Bu baytda ham Ibrohim payg‘ambarni olovga tashlagan zolim podshoh Namrud qissasiga ishora qilingan. Aytishlaricha, butun er yuziga yakka hukmronlik faqat to‘rt kishiga muyassar bo‘lgan. Bulardan ikkitasi Sulaymon(a) payg‘ambar va Iskandar bo‘lib, ikkitasi zolim va xudosiz Namrud hamda Buxtunnasrdirlar. Namrud Ibrohim(a)ni Bobildan ixroj qilib, uning karomat va mo‘jizalariga ishonmadi. “Va gumrohroq bo‘lub, tengrilik da’vosin ko‘prak qildi... Oqibat Ibrohim(a) duosi bila Namrudning sipohin pashsha xayli halok qildi, ellar dag‘i azob bila ani halok qildi. Rivoyatdurkum, ul pashsha Namrudning mag‘zig‘a qasd qilsa erdi, aning manglayig‘a aning nima ursalar erdi, taskin topar erdi. Ish bir erga ettikim, to‘qmoq yasatti. Muttasil aning boshig‘a birov urar erdi va aning havosining yaxshiroq xizmati bu erdikim, ul to‘qmoqni aning boshig‘a bir karak urg‘ay, to bu azob bila jahannamg‘a bordii”.

²⁶ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 10-том. “Сабъаи саёёр”, Т.:Фан, 1992. 18-бет

Navoiy ijodiyotida ayrim holatlarda ishora san'ati tarjima bilan qorishib ketgan. Shoir gohida bir bayt yo misrada oyat yo hadisning mazmunini qisman keltirib, ta'bir joiz bo'lsa, erkin tarjima vositasida aynan qaysi oyat yo hadis manba sifatida xizmat qilganiga nozik ishora qiladi:

Eshittim, telba it ko'yida qatl aylar emish, oning

Kim ul ko'y itlaridin erdi bu devona ham bir kun.

Hadisda shunday deyiladi: “*Beshta yomon hayvon bor. Ular hajda ham, tashqarida ham o'ldirilaveradi: 1. Ilon. 2. Olaqarg'a. 3. Sichqon. 4. Quturgan it. 5. Kalxat*”.

Birinchi misrada ushbu hadis mazmuniga qisman ishora bor. Ikkinci misradagi it obrazi esa, oshiq sadoqatining ramziy ifodasidir. “Devona” so‘zi tasavvuf adabiyotida mashhur bo‘lgan boshqa bir hadis mazmuniga ishora bo‘lib, ayni paytda yuqorida keltirilgan hadis bilan mushtarak: “*Odamlar telba-devona hisoblamaguncha, kishi o'z imonini komil deyolmaydi*”.

Navoiy aytmoqchi, Yor ko'yining sodiq itiga aylanib, bu muqaddas ostonaga begonalarni qadam bosishiga yo'l qo'y maydigan muhabbat devonasi o'z jonini nisor etishga tayyordir. Itning vafodorligi, oshiqning devonaligi hamda telba itning Baytullohda ham o'ldirish mumkinligi mantiqiy birlikni tashkil etib, zohiran bir-biriga mutlaqo aloqasi bo'limgan fikrlar yagona va yaxlit g'oyani obrazli tilda ifodalash uchun vosita bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, ulug‘ Navoiy Qur'on va hadisda bayon etilgan mangu barhayot g'oyalarni o'z asarlariga singdirib, ularga yangi jilo va ruh bag'ishlash yo'lida ishora san'ati kabi juda ko'p badiiy vositalar, san'at va adabiy usullardan mahorat bilan foydalangan. Xoja Hofiz aytganlaridek:

O'shadir ahli bashoratki, ishoratni bilur,

Nuktalar ko'p, vale mahrami asror qani?!

2.2. Alisher Navoiy ijodiga oyat, hadislarning ta’siri va ma’rifiy g‘oyalar talqini. Alisher Navoiy ijodi Qur’oniy mavzularni yoritishi jihatidan o‘zbek mumtoz adabiyotida alohida ajralib turadi. Otasi G‘iyosiddin Muhammad o‘g‘liga Muhammadning (alayhissalom) sahabalaridan Hazrati Ali (roziyallohu anhu) nomini berdi. Alisher ismining ikkinchi qismi ham Hazrati Aliga daxldordir. Janobi Payg‘ambarimiz Hazrati Alining mushriyutar bilan bo‘lgan jangdagi jonbozligini ko‘rib: «Ali — Allohning sheri», der ekanlar. Shoiriing to‘liq ismi Mir Nizomiddin Alisher Navoiy deb yuritiladi. «Mir» so‘zi amir so‘zining qisqargan shakli bo‘lib, shoh saroyidagi amal-mansabni ifoda qiladi. “Nizomiddin” esa dinning yo‘l-yo‘riqlarini belgilovchi ma’nosini beradi.

“Navoiy” shoirning taxallusi bo‘lib, navo so‘zi «kuy», «baxt», «sayrash», «bahra» ma’nolarini beradi. Navoiyshunoslikka oid kitoblarda shoir taxallusi «kuy» so‘zidan olingan degan noto‘g‘ri fikr bor. Shoir o‘z taxallusini «bahra» so‘zidan olgan. Bu haqda uning o‘zi bunday degan:

Dahr bog‘ida bo‘lib komim ravo,
Komronlar topdi nazmimdin navo. (18.193)

Butun umrini elga baqra, fonda yetkazishga bag‘nshlagan shoirning «bahra» so‘zini taxallusiga asos qilib olgani Islom g‘oyalariga mos keladi. Shoirning ikkinchi taxallusi ham shunday ma’nolar bilan bog‘liqdir. Qur’oni karimda ta’kidlanishicha, bu dunyo - o‘tkinchi, sinov uchun yaratilgan dunyo. Shuning uchun shoir o‘ziga “Foniy” taxallusini tanlagan. Bu haqda shoirning o‘zi bunday yozgan:

Fayz etgach ul maoniydin mengo,
Topdi belgu nazm foniydin mengo. (12.132)

Alisher bolalik chog‘lari ko‘p kitob o‘qidi. Eski maktab, madrasada Qur’on suralari yod olinar, qiroat usullari o‘rgatilar zdi. Demak, Alisher bolalik chog‘laridanoq Qur’oni karimni yod oldi. Uning quvvai hofizasi juda

kuchli edi. Shoir bolaligida Qur'ondan tashqari Fariduddin Attorning «Mantiquut tayr» dostonini ham yod olgan. Navoiy yigitlik chog'lari 50 ming bayt g'azalni yod bilgan.

«Mantiquut tayr» dostoni bu dunyoning o'tkinchiligin, chinakam baxt Alloh jamoliga erishish ekanini tasvirlovchi doston edi. Bu doston Navoiy dunyoqarashining shakllanishida juda katta omil bo'ldi. Navoiy Samarqandda o'qish chog'lari tasavvuf ilmining yirik vakili Xo'ja Ahror bilan uchrashdi. Bu uchrashuv, undagi suhbatlar oqibati shu bo'ldiki, Navoiy tasavvuf tomon yuz burdi, naqshbandiya tariqatini qabul qildi.

Navoiyning har bir faoliyati Qur'oni karim oyati kalimalarida qayd etilgan fikrlar bilan mos keladi. Baqara surasining 110-oyatida «Namozni qoim qiling, zakot bering, o'zingiz uchun qilgan yaxshilikni Alloh huzurida topasiz», deyilgan. Navoiy namozni hamisha qoim qilgan zotdir. «...Bu obidlar va bandalar panohining juma namozini va boshqa namozlarni jamoat bilan o'tashda g'ayrati shu darajaga etgan ediki, Marg'ani bog'ida g'oyatda ziynathi bir masjid bino qilib, o'z zamonining atoqli qorilaridan Xoja Hofiz Muhammad Sultonshohni imom belgiladi va o'zi u yerda besh vaqg namozga hozir bo'lardi».

Navoiy O'rta Osiyo va Xurosonda Xo'ja Ahrordan keyingi boybadavlat odam edi. Navoiyning bir kunlik daromadi 18 ming shohruhiy dinor edi. Navoiy bu boylikni masjidlar, madrasalar, ko'priklar qurishga, miskinlarga emak va kiyim-bosh berishga, talantli kishilarni qo'llab-quvvatlashga, xullas, el-yurt ishlariga sarf qilgan.

Navoiy Husayn Boyqaro xazinasidan oylik ham olmagan. Aksincha, o'zi har yili Husayn Boyqaroga katta-katta tortiqlar qilib turgan.

Navoiy bu haqda shunday degan: «Bir oz nima ziroatga ishtig'ol ko'rguzdim. Chun ul ishimda qila olg'oncha insof tarafi malhuz erdi. Tengri inoyatidin ko'p mahsullar hosil va g'animatlar vosil bo'la kirishdi. Bu

jumladin, o‘z maoshimg‘a soiri avomdin birining maoshi o‘tkuncha issiqsovuuq daf’i uchun biror to‘n, dog‘i muncha munosib emakka qoni’ bo‘lub, qolg‘onkim ba’zisin elning kelish-borishiga va navkar va mutaalliqlar ulufasig‘a va cherik yarog‘iga sarf qildim ... va ba’zinikim, jam’i maunot va barcha taklifotdin ortdi, buqon xayr bino qildim».

Navoiyning zamondoshi Davlatshohning yozishiga ko‘ra, Navoiyning vaqflarga va binolarga sarf qiladigan mablag‘i yuz tuman kepakiga baravardir.

«Xolisiya» xonaqohida har kuni mingdan ziyod miskinga ovqat tarqatilgan, har yili muhtojlarga 2 mingga yaqin po‘stin, chakmon, ko‘ylakishton, kovush ulationgan.

Baqara surasining 265-oyatida: «Mollarini Alloh rizoligini istab, samimiyl dillaridan chiqarib sarf qiladigan kishilar adirdagi boqqa o‘xshar: unga jala quygach, hosilniig ikki baravar etishtirar», deyilgan. Navoiy butun boyligini el-ulus manfaati yo‘lida sarf qilgan. Xondamir, bunday yozadi: «Chunonchi, bu islam tayanchlarini yuqori ko‘tarib mustahkamlash namozda qoim bo‘lishga harakat qilish edi, zakot va sadaqalar adosiga ham sa’y va g‘ayrat ko‘rsatish edi, balki bu so‘zlarni yozuvchining ishonchi shudirki, hech qachon ul hazratning xazinasida yil davomida zakot berish vojib bo‘larli miqdordagi mablag‘ to‘planib turmasdi. Chunki mulozimlarning qo‘liga nimaiki tushsa, tezdan kishilarga in’om berish yo‘li bilan sarf qilinar yoki xayrli binolar barpo qilishga ketardi».

Qur’oni karim Haj surasining 26, 27, 28, 29-oyatlarida haj hukmlari kelgan. Boshqa suralarda ham bu haqda oyatlar bor. Jumladan, 27-oyatda bunday deyilgan: «Odamlar orasida (yurib ularni) hajga chorlagin! (Shunda) ular senga (Ka’baga) piyoda va har qanday tuyada uzoq yo‘llardan kelurlar». Navoiy «Siroj ul-muslimin» kitobida haj amali haqida bunday yozgan:

Beshinchi rukn bilgil haji islam,

Chu farz o‘ldi adosi keldi nokom.
Vale farziyatida shartlar bor,
Kuloq tutkim, qilay borini izhor.
Birov ulkim, istitoat bo‘lsa mavjud,
Anga tegruki, qilding ani maqsud.
Yana bir shart yo‘l amniyati bil,
Bu chun mavjud o‘lur haj niyati qil.
Yana gar dayn yo‘q bo‘ynunga lozim,
Sayga bo‘lmoq bo‘lur ul yo‘lga ozim.
Yana gar yo‘q ayolingdin maunat
Ki, ul ko‘rgay maosh uchun suubat.
Yana gar bermadi jismingda sone’,
Maraz andoqli, bo‘lg‘ay yo‘lga mone’.
Bu mahzurot gar yo‘q tebra filhol,
O‘zungni do‘st ko‘yi tavqiga sol.
Nekim farz o‘ldi bo‘ynungda ado qil,
Yetib maqsadqa komingni ravo qil.²⁷

Navoiyning haj safariga otlanishi, lekin borolmaslik sabablarini Xondamir bunday sharhlagan: «...Ul hazratda o‘sib-o‘nish kunlari boshlanishidan to hayotining oxirgi damlarigacha boshida islom hajini o‘tash havasi va xotirida payg‘ambar qabrini ziyorat qilish joylashgan edi. Har doim imkon boricha bu bobda harakat qilardi va uzluksiz tilga keltirib va o‘z holati bilan bu ikki baytni ifodalar edi.

Qay buvad, yorab, ki ro‘ dar Yasribu Batho kunam,
Gah ba Makka manzilu gah dar Madina jo kunam.
Bar kanori Zamzam az dil bar kasham yak zamzam,

²⁷ Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. Матнни нашрга тайёрловчи Суйима Фаниева.- Тошкент: Фан. 2000 14-бет

V-az du chashmi xunfishon on chashmaro daryo kunam.

Tarjimasi:

Yo rab, Yasrib bilan Bathoga qachon borarkinman?
Goh Makkada tursamu goh Madinada joylashsam.
Zamzam atrofida yurak taronasini kuylasam,
Qon sochuvchi ikki ko‘zimdan u chashmani daryo qilsam.

Necha bor bu safarga ruxsat olish uchun muborak oyog‘ini uzangiga qo‘yib, to‘g‘ri tomonga (podsho huzuriga) yo‘llanar, har bor sohibqiron iltimosi bilan qaytar va bu istakning yuzaga chiqishidan cheklanar edi».

Navoiy uch marta haj safariga otlangan. Ikki marta shoh turli bahonalar bilan ruxsat bermagach, uchinchi marta yuzma-yuz aytishga andisha qilgan gaplarini xat orqali bayon qiladi. Husayn Boyqaro ham Navoiyga xat orqali javob beradi. Jumladan, bunday deydi: «Siz Xurosonda turar ekansiz, har qanday iltimosingiz bo‘lsa, hurmat bilan qabul qilinadi. Men shuni juda aniq bilamanki, agar bu davlat sizning sharofatli vujudingizdan holi bo‘lsa, ayrim shaxslar va xalq orasidagi o‘zboshimchalik ahvol ixtilofga aylanib ketadi».

Xullas, Husayn Boyqaro ruxsat bermagani sabab Navoiy haj safariga bora olmagan.

Ma’lumki, 1498-1500 yillarda Husayn Boyqaro bilan o‘g‘illari Badiuzzamon, Muhammad Husayn, Abul Muhsin orasida nizolar qizib ketgan paytlar edi. Nihoyat Navoiy qattiq turib hajga borishga izn so‘raydi. Shoh noiloj ruxsat beradi va o‘sha vaqtida Husayn Boyqaro isyon ko‘targan o‘g‘li Muhammad Husayn Mirzoga qarshi qo‘shin tortadi. Bu voqeа 1500 yilning yozida bo‘ladi. Navoiy haj safariga otlanadi. Shunda isyonchilar Navoiy kelsagina sulh tuzishga rozi ekanligini aytishadi. Navoiyga elchi shu xabarni etkazadi. Shunda Navoiy Xirot ulamolarini to‘plab maslahat soladi. Ular el-yurt tinchiligi, osayishtaligi hajdan ustivor ekanligini aytishadi. Navoiy Husayn Boyqaro bilan birga bo‘ladi. Isyon bostiriladi.

Hajga borish armonga aylangan Navoiy shohdan Jom viloyatidagi Xarjurd degan joydagi qabristonda jorubkashlik qilishga ruxsat oladi. Bu haqda Alisher Navoiy “Majolis un nafois” asarining “Avvalgi majlis”ida Amir Qosim Anvor — Shoh Qosim Anvor Tabreziy haqida ma’lumot berar ekan, shunday yozadi: “Va ul hazratning muborak marqadi Jom viloyatida Xarjurd qasabasidadur. Va faqir ham ul ostona jorubkashlaridinmen” (M.N. 3-bet)

Alisher Navoiy bu erda Jom viloyatidagi Xarjurd degan joydagi mozorda dafn etilganlarga, jumladan Qosim Anvorga o‘z hurmati va e’tiqodini izhor etadi.

Jorubkash — so‘zining ma’nosi - masjid, madrasa, xonaqo va mozorni supuruvchi xizmatkor. Lekin bu Navoiy jorubkash bo‘lgan degan ma’noni anglatmaydi. Vaholanki, XV asrda Movarounnaharda eng katta mulk egasi, naqshbandiy sulukining saromadi Xoja Ahrori Valiy bo‘lsa, Xurosonda xuddi shunday odam Alisher Navoiy edi. Uning bir kunlik daromadi 18ming shohdinorini tashkil etardi.

Amir Qosim Anvor kim edi?

Amir Qosim Anvor — Shoh Qosim Anvor Tabreziy (1346, Tabrez—1433, Jom). Arab va yunon, fors va turkiy tillarni yaxshi bilgan hamda shu tillarda she’rlar yozgan. Umrining aksar qismini Hirotda kechirgan. Samarqandda ham yashagan. Shoirnnng to‘la kulliyoti 1959 y. Tehronda nashr qilingan, unda g‘azallar devoni, «Anis ul-oshiqin» (Oshiqlar do‘sti) nomli masnaviysi, «Tavajjuhnama» (Ollohg‘a intilganlar haqida asar), «Voqiai Hirot» (Hirot voqialari), «Risolai vujud» (Borliq haqida risola), «Makotib» (Maktublar), «Savolu javob» va boshqa asarlari o‘rin olgan. Qosim Anvor tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasasi sifatida mashhur. U, ayniqsa, Jaloliddin Rumiya ergashgan. Shuningdek, Qosim Anvor asarlarida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy masalalar ham ilgari suriladi. Navoiy «Nasoyim

ul-muhabbat» asarida ham bu shoir haqida ancha mufassal ma'lumot beradi.

Umuman olganda, Navoiy hazratlari mo'min-musulmon banda sifatida qaerga borsa, oldiniga tabarruk qadamjolarni ziyyorat qilardi.

Isro surasining 37-oyatida: «Er yuzida kibru havo ila yurma», deyilgan. Navoiy ana shu oyati karimaga asosan, haj safariga bora olmagach, podsho farmoni bilan Ansoriy qabriga juzvkashlikka (suv sepuvchi, supuruvchi) tayinlanadi. Navoiyning butun hayoti Qur'on g'oyalari asosiga qurilgan.

Nizomiddin Alisher Navoiy ijodi ham Qur'on oyati karimalari bilan zinch aloqadadir. Navoiy poeziyaning bosh vazifasi Alloho ni madh etishdan iboratdir, deydi. Alloho ni vaf etish, Alloho ni zikr qilish payg'ambarlardan merosdir. Dovud (alayhissalom) tasbeh aytganida, tog'u toshlar, qushlar ham Alloha tasbeh aytishgan. Zakariyoni (alayhissalom) kofirlar daraxt bilan arralab tashlashganida ham, Alloho zikrini aytishdan to'xtamagan. Ayub payg'ambarni sinash uchun Alloho uning badaniga yara toshririb yuborgan. Shunda ham Ayub payg'ambar: «Allohim, tilimga yara toshfirmagin, toki zikringni aytolmay qolmayin», deb iltijo qilgan.

Navoiy barcha asarlarining «Debocha» qismida, hamd bobida Alloho taoloni madh etadi. Jumladan, «Lisonut tayr» dostonida Semurg' timsoli orqali Alloho ni madh etadi:

Sizga Shohe bor beshibhu misol,
Vasfini ayturda yuz ming nutq lol.
Ul yaqin sizgavu siz Ondin yiroq,
Vasl Anga aynu, vale sizga firoq.
Har kishi bo'lsa tirik Ondin yiroq,
Ul tiriklikdin o'lim ko'p yaxshiroq.

«Hayratul abror» dostonida bunday yozgan:

Avval o'zing, oxiru mobayn o'zing,
Barchag'a xoliq, borig'a ayn o'zing.

Rahmon surasining 14-oyatida: «Insonni sopolga o‘xshash qurigan loydan yaratdi», deyilgan. Insonni tuproqdan yaralganini bugungi ilmiy tajriba ham tasdiqlamoqda. Tuproqda qanday moddalar bo‘lsa, insonda ham o‘sha moddalar mavjud. Tuproqda karbon, kislorod, fosfor, azot, kaliy, xlor, temir, mis, yod kabi 20 xil modda bo‘lsa, bular inson jismida ham mavjuddir.

Isro surasining 70-oyatida bunday deyilgan: «Batahqiq, Biz Bani Odamni azizu mukarram qilib qo‘ydik va ularni quruqligu dengizda (ulovila) ko‘tardik hamda ularni pok narsalar ila rizqlantirdik va uni O‘zimiz yaratgan ko‘p narsalardan mutlaqo afzal qilib qo‘ydik».

Insonning azizu mukarram qilib yaratilgani g‘oyasi Navoiyning «Hayratul abror» dostonida bunday aks etgan:

Muncha g‘aroyibki misol aylading,
Barchani mir’otga jamol aylading.
Ganjing aro nakd farovon edi,
Lek boridin g‘araz inson edi.
Koniyu hayvoni, agar hud nobot,
Har biri bir gavhari oliv sifot.
Barchasini garchi latif aylading,
Barchadin insonni tarif aylading.²⁸

Navoiy Alloh taolo azizu mukarram qilib yaratgan insonga sevgisini bunday bayon qiladi:

Jondin seni qo‘p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni qo‘p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmoq ondin ortiq bo‘lmas,
Ondin seni qo‘p sevarmen, ey umri aziz.

Shoirning «Sittai zaruriya» qasidalar to‘plamidagi «Ruhul-quds»

²⁸ Алишер Навоий. Ҳайратул-аббор. –Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. 12-бет

qasidasida Alloh taolo vasf etiladi. Navoiyning talqinicha, dunyo va undagi butun mavjudotni faqat Alloh yaratgan. Ular yakka-yagona Xudoning qudrati tufayli yo‘qdan bor bo‘lganlar va bordan yo‘q bo‘ladilar. Kuchlilarni quchsiz, zaif va zabun etuvchi, kuchsizlarni esa kuchli etuvchi ham Allohdir.

Navoiy insonning yaratilishi haqida yozadi:

Chu soz kardi tarkibi jismi insoni,
Zi xok ta’biyai soxta ba zebu baho
Chu az zaminash bardoshti ba sad e’zoz
Ba martaba guzarondi zi torami xazro
Ba xoki jismash boroni rahmat afshondi,
Kaz on muloyamat ovard tinatash paydo.
Ba dasti hikmati xud karda tinatash taxmir,
Se ziddi digarash afzuda az ajoyibho.
Chahor zidro kardi ba yakdigar tarkib,
Ki xoku otash bud ongah ob budu havo ...
Havosi zohiriyash niz chun, ki kardi rost,
Zi nuri aql ba kohi dimog‘ toft ziyo.
G‘arib pishvare orasti zi shahri badan,
Ki mulk to malakut on chi hast, hest onjo.
Dar u nishonidi dilro ba taxti sultonni,
Ki shud ba rasmi salotin xidavi mulkaro.
Xirat vazorati on shahro muayyan shud,
Gadoy shohu vaziron kamina banda turo
Bas on gahe ba ulumash chu rahnamun gashti,
Najust kardi ta’limi, allaman - «asmo».
Za ilmi ma’rifat ash chunki bahravar kardi,
Maloikash ba sujud amodand abdoso.
Zi ofarinishi xud on chi kardan mavjud,

Uyunu bahru jibolu nujumu arzu samo.
Dar on a juba namundori az hama kardi,
Amonatro ham dodiyat ba rasmi xaoro.
Chu gasht mazhari kul ba'd oz on laqab dodesh
Chu miyoni mohalaqulloh olami kubro.²⁹

Tarjimasi:

Sen inson jismi tarkibini soz etganingda,
Tuproqdan chiroylik va qimmatbaho narsa yaratding.
Uni tuproqdan qo'tarding yuz e'zoz bilan,
Uning martabasini ko'k osmon gumbazidan yuqori ko'tarding.
Jismi tuprog'iga rahmat yomg'irini yog'dirding,
Shu tufayli uning tabiatida muloyimlik paydo bo'ldi.
Himmat qo'ling ila uning tabiati xamirini oshirding.
Yana unga uch ziddiyatli ajoyiblarni qo'shding,
To'rt ziddiyatni bir-biri-la tarkib etding.
Ular tuproq, o't, suv va havodir ...
Insonning vujudi go'zallik bilan bezatilgach,
Unga jon baxsh etding.
Zohiriy havaslarini rost aylaganingdan keyin
Aql nuridin miya qasriga ziyo tarqaldi.
Badan shahrida ajoyib mamlakat oro berding,
Unda mulkdan malakutga qadar hamma narsa mavjuddir.
Unda Sen dilni sultonlik taxtiga o'tqazding.
U sultonlar kabi mulk hukmroni bo'ldi.
Aql ul shohning vazoratiga muayyan etshtdi.
Gado-yu shohu vazirlar hammasi Senga bandadirlar.

²⁹ Алишер Навоий. Ситтаи зарурия. www.ziyouz.com кутубхонаси. 9-бет

Undan keyin Sen uni ilmgaga rahnamul etding.
Birinchi ta'limda o'qishni tanitding.
Uni ilmi ma'rifikatdan bahravar qilganingdan keyin
Maloikalar amring ila unga sajda qilishdi.
Yaratgan narsalaring ichida
Buloqlar, dengizlar, tog'lar, yulduzlar, er va osmon bo'lib,
U ajubada hamma narsani ko'rsatding.
Maxfiy ravishda o'z omonatingni ham ham ularga berding.
Butun borliq paydo bo'lgach, Sen (insonga) laqab berding,
Yaratilgan mavjudotlar ichida (inson) eng ulug' olamdir.

Navoiy Qur'oni karim ta'sirida «Tarixi anbiyo va hukamo» asarini yozgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Odam atodan tortib, Nuh, Iso, Ya'qub, Sulaymon, Yusuf, Dovud va boshqa payg'ambarlar haqida ma'lumotlar beriladi. Har bir qissa oxirida ruboiy berilib, xotima yasalgan.

Navoiy Qur'on ta'sirida «Siroj-ul muslimin» nomli kitob yozdi. Bu kitobda shariat ahkomlarini, Allohning sakkiz sifatini anglatganidan so'ng, Islom asoslarini nazmda bayon etadi.

Shoir Allohning qodirligi, barcha mavjudotning yaratuvchisi ekani, Uning muqaddas kitobi - Qur'oni bilish, payg'ambarlarni e'tirof etish, avliyolar karomati, qiyomatga ishonish, sirot, mezon, jahannam va jannah, payg'ambar shafoati, shuningdek, Islom ruknlarini bilish, ozodalik, namoz farzlari va sunnatlari, zakot, ro'za va haj masalalarini qisqacha she'riy bayon etadi.

Josiya surasining 7-oyatida: «Har bir yolg'onchi gunohkorga halokat bo'lsin», deyilgan. Zoriyot surasining 10-oyatida: «Yolg'onchilarga la'nat bo'lsin», deyilgan.

Navoiy «Hayrat-ul abror» dostonida rostgo'ylikni ulug'laydi,

yolg‘onchilikni qoralaydi. Dostonning o‘ninchি maqolatida shunday fikrlarnи o‘qiymiz:

Ulki shior ayladi yolg‘on demak,
Bo‘lmas ani eru musulmon demak.

Kimsaga yolg‘onchi debon qolsa ot,
Bu ot ila chorlasalar o‘zu yot.

Sidq xitobi yana yonmas anga,
Chin desa ham, xalq inonmas anga.

Necha zarurat aro qolg‘on chog‘i,
Chin demas ersang, dema yolg‘on dog‘i.³⁰

Shoir «Sher va Durroj» hikoyatida yolg‘onchi Durrojning fojiaviy ahvoli orqali yolg‘onchilikni qoralaydi.

Ahqof surasining 15-oyatida: «Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik», deyilgan. Navoiy farzandning ota-onani e’zozlashi zarurligini shunday uqtirgan:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.

Tunu quningga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Ra’d surasining 17-oyatida bunday deyilgan: «(Alloh) osmondan suv (yomg‘ir) yog‘dirganida jilg‘alar miqdori bilan oqib, (bu) sel o‘z ustida ko‘niklarni ham ko‘tarib kelur. (Odamlar) zeb-ziynat yoki asbob-uskuna (yasash) uchun yoqadigan (olov)lardan ham shunga o‘xshash (chiqindi paydo) bo‘lur. Allah haq bilan botilni (mana shunday misol bilan) bayon qilur. Bas, kulik o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketur. Odamlarga foydali bo‘lgan narsa esa yerda qolur. Allah misollarni mana shunday bayon qilur».

³⁰ Алишер Навоий. Ҳайратул-аббор. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. 155-156-бетлар

Bu oyatni hadisda bunday sharhlanadi: «Men bilan yuborilgan hidoyat va ilm bamisoli yerga yoqqan yomg‘irdir. Yer ham turli bo‘ladi. Suvni yaxshi qabul qilib, o‘zidan har xil giyohlarni undiradigan ham, aksincha, suvni qabul qilmaydigan, biror giyohni undirmaydigan quruq-bo‘z yerlar ham bo‘ladi. Shunga o‘xhash Alloh dini va men keltirgan ishlarni o‘rganib, unga amal qilib, boshqalarga ham o‘rgatadigan kishilar bo‘lganidek, ilm va hidoyatni qabul qilmaydigan kimsalar ham bo‘ladi».

She’riyatda ixtibos degan san’at bor. Bu san’atning mohiyati shundaki, Qur’on oyatlari mazmuni, hadislar mazmuni she’rga solinadi. Navoiy ana shu san’at vositasida yuqoridagi oyat va hadis mazmunini shunday she’rga solgan:

Garchi quyoshdin parvarish er yuzini om qilur,
Sahroda qumg‘og‘u tikan, bo‘stonda sarvu gul bitar.

Quyosh butun er yuziga teng nur sochsa ham, sahroda qumg‘og‘u tikan, bo‘stonda sarvu gul bitadi.

Yusuf surasining 3-oyatida: «Biz Sizga ushbu Qur’on (surasi)ni vahiy qilishimiz bilan birga go‘zal qissani aytib berurmiz», deyilgan. Bu go‘zal qissa Navoiyni ham maftun etgan. U «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida Yusuf (alayhissalom) tarixini bergen bo‘lsa-da, bu payg‘ambar haqida doston ham yozmoqchi edi.

Qur’oni karimda «Lavhul mahfuz» haqida tushunchalar bor. Bu manbada Alloh barcha mavjudotlar taqdirini yozib qo‘ygan. Allohnинг xohishisiz hech narsa bo‘lmaydi. Navoiyning Said Hasan Ardasherga yozgan xatida ana shu ma’no o‘z ifodasini topgan:

Safar tushti ollimg‘a beixtiyor,
Qazo amrida elga ne ixtiyor.

Moida surasining 90-oyatida xamr (ichkilik) harom ekani uqgirilib, bandalarni undan uzoq bo‘lishi lozimligi aytilgan. Navoiy sharobni «ummul

xabois», ya’ni barcha yomonliklar, falokatlar onasi deb atagan. «Hayratul abror» dostonida shunday yozgan:

Har kishiki qilsa bu suvdin tarab,
Xona siyoh o‘lmog‘i ermas ajab.
Suv demagin oniki bir o‘t erur,
Kim etti, ko‘p xirmonni kuydirur.

Navoiy «Hayratul abror» dostonida tarbiya masalasiga to‘xtaladi. Odatda itning og‘zi tekkan taom harom sanaladi. Ammo ovchi it tishlab kelgan qush halol sanalib eyiladi. Ovchi itning boshqa itlardan farqi shundaki, u tarbiya qo‘rgandir.

Itga ta’limda chu bo‘ldi kamol,
Sayd oning og‘zida o‘ldi halol.

Qur’on oyati kalimalarining ta’siri «Xamsa» tarkibidagi barcha dostonlarda sezilib turadi. Bu umuminsoniy g‘oyalar shoirga ilhom bergen, ularni turli shakllarda o‘z dostonlarida ifoda etgan. Johiliyat davrida Abu Jahl kabi otalar qizlarini tiriklay yerga ko‘mishgan. Otalar xarakteridagi bu shafqatsizlik, bu jaholat Navoiyning «Layli va Majnun» dostonidagi Laylining otasi xarakteri orqali qo‘rsatilib, uning xarakteridagi bu qabohat qattiq qoralangan.

Laylining otasi qizi Qaysni qanchalar sevishini bilsa-da, o‘zidan past oilaga qiz berishdan or qiladi. Boshqa qabila boshlig‘i — Navfal Qaysni baxtiyor qilmoqchi bo‘ladi. Ammo Laylining otasi Navfal sovchi bo‘lib kelsa ham, Qaysga qizini bermaydi. Navfal jang qilib bo‘lsa ham, Laylini Qaysga olib bermoqchi bo‘ladi. Laylining otasi shu qadar johilki, mabodo Navfal g‘alaba qilsa, qizini darhol o‘ldirish uchun jallod tayyorlab qo‘yadi.

Kim tong-la ul oyni qozir aylay,
Bir damda ishini oxir aylay.
O‘q ignasidan tikay libosin,

Xanjar suyidin ezay xinosin.
Tufroqqa solay qadi niholin,
Erga kiyuray qoshi hilolin.
Xushroqki aduvg‘a kom bo‘lg‘ay,
Nomus menga harom bo‘lg‘ay.

Qur’oni karimning Kahf surasi 13-oyatidan boshlab Zulqarnayn haqida qissa keladi. Uning yashagan joyi, zamoni haqida emas, qilgan ishlari haqida ma’lumotlar aytildi. U Mag‘ribdan Mashriqqacha bo‘lgan joylarni zabit etgan. Ya’juj va Ma’jujlar chiqadigan ikki tog‘ orasiga devor barpo qiladi. Devor qurishda temirni eritadi, uning ustiga misni eritib quyadi. Mis aralashgan temir qorishmasi mustahkam bo‘lishi fanda yaqinda kashf etildi.

Qur’onda zikr etilgan Zulqarnayn bilan Filipp o‘g‘li Aleksandr tarixi o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lgani uchun kitoblarda chalkashliklar bor.

Navoiy Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviydan so‘ng «Xamsa» yaratib, Quron ma’lumotlari, ustozlari asarlariga tayangan holda, Iskandar (Zulqarnayn) timsolini yaratdi. Navoiy Iskandar timsoli orqali o‘z zamonasining muhim ijtimoiy masalalarini ifoda etdi. Navoiy uchun Iskandarning jahongirligi, shon-shuhrati emas, xalq manfaatini ko‘zlab, Ya’juj-Ma’jujlar chiqadigan tog‘ orasiga qurgan devori muhimdir. Shuning uchun uning bu ishini asar sarlavhasiga olib chiqib, asar nomini «Saddi Iskandariy» — «Iskandar devori» deb atadi.

Navoiy dostonida Iskandar Qirvon o‘lkasiga yetishganida, bu yerning xalqi unga murojaat etib, o‘zlarini Ya’juj-Ma’juj balosidan xalos etishini so‘raydi. Bu balolar har yili ikki marta makonlaridan chiqib, vodiyga yoyiladi. Hamma yoqni xonavayron qilib, qo‘lga tushgan odamlarni yeb, so‘ng qaytib ketadi.

Iskandar odam yuborib, Rus, Shom, Rumdan ustalar keltiradi. Mis, rux, qalay, bronza, temir, qo‘rg‘oshinni eritib, tog‘ jinslari bilan qorishtiradi.

Uzunligi o'n ming qarn, binosi besh yuz qarn devor olti oyda qurib bitkaziladi. Devorning balandligi uch yuz qarn edi.

Ki necha ming ustodu san'atgariy

Tamom etdilar Saddi Iskandariy.

Aytishlaricha, Ya'juj-Ma'jujlar Iskandar devorini kechasi bilan yalab, tonggacha piyoz po'sticha holatga keltirar ekan: Tongda azon tovushi eshitiliish bilan devor o'z holatiga qaytib, ularning yo'llari berkitilar ekan. Qiyomatning bir belgisi Ya'juj-Ma'jujlarning yer yuziga chiqishidir.

Navoiy dostonida Iskandar Faylaqusning asrandi o'g'li deb berilgan. Rum shohi Faylakus bir kuni ovdan qaytayotib, yo'l ustidagi vayronada yangi tug'ilgan chaqaloqni ko'radi. Uning onasi homiladan bo'shagach, vafot etgan edi. Tirnoqqa zor shoh uni saroyga olib kelib, valiahd deb e'lon qiladi.

Navoiy zamonida shoh o'lgach, taxtga loyiqli, loyiq emasmi, albatta, shoh surriyoti o'tirar edi. Navoiy Iskandar timsoli orqali bu udumga qarshi chiqib, taxtga munosib odam o'tirishini orzu qilmoqda.

Dostonda Navoiyning yana bir orzusi berilgan: shoh atrofida olimlar jamlangan bo'lishi shart. Shoh har bir tadbirni ularning maslahati bilan amalga oshirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Iskandar mashhur olim Nikumohis qo'lida tarbiya topadi, uning o'g'li Arastu bilan do'stlashadi.

Iskandar yer yuzini, suv ostini egallaydi. Jahongirlilikning nima bilan tugashini Navoiy Iskandarning o'limi timsolida namoyon etadi. Yer yuzasi, bahrlar va suv ostini zabt etgan Jahongir qizigan qumlokda, yolg'izlikda, bir qalqon soyasida dunyodan o'tadi. U o'lim oldidan onasiga yozgan maktubida butun qilgan ishlari xom ekanini, xatoligini bo'yniga oladi. U onasiga murojaat qilib:

Sanga aylabon xoki dargohlik,

Aning otin etsam edi shohlik, —

deb kechikkan orzusini bayon etadi.

Shunday qilib, Navoiy butun hayoti va ijodini Qur'on oyatlari, hadislar asosiga qurgan komil musulmonning ibratli namunasidir. Shoir hamisha Qur'on o'qishni, uning g'oyalariga amal qilishni komillikning asosiy sharti deb tushunadi.

Olam eli ichra gar gado, gar shoh erur,
Ne dardki, ul ko'ngli aro hamroh erur.
Qur'oni tilovat etsun ar ogoh erur,
El ko'ngliga chun davo Kalomulloh erur.

Navoiy umrining oxirida «Munojot» asarini yozdi. Shoir bunda o'zining hayotiy va ijodiy yo'liga yakun yasaydi. «Munojot» Allohga tazaru bayonidan iborat. Navoiy unda davr, muhit bilan bog'liq armon-o'kinchlarini, insonning asl his-tuyg'ularini qalamga oladi.

Xulosa qilib aytganda, «Munojot» Navoiy ezgu niyatlarining, samimiyl intilishlarining tajassumi o'laroq, mohiyatan kelajak avlodlarga bitilgan bir maktubdir. Navoiy bu asarida ham insonni nafsi anglashga chorlab, ma'naviy kamolot, imon-etiqod ustuvorligini tarannum etadi-ki, Navoiy bu haqda: «Ilohi, agar havasdan bosh-oyog' yalang har yon yugurdim, boshdin-oyog'im yomon erkanin xaloyiqqa bildirdim. Ilohi, yigitligim bu nav' ham qatig' o'tti, ham achig', qariligid'a yuz qatla o'zumni o'ltursam ne asig'.

Ilohi, toatqa tavfiq bersang, riyodin asra va ibodatka yo'l qo'rguzsang, xatodin asra. Ilohi, beiloj dardg'a alil qilma va bemuruvvat nomardga zalil qilma. Ilohi, podshohi Islomni muslimin boshig'a tutqil bardavom, ya'ni, bandalarning ustig'a ko'langkangni qil mustadom, to shohu gadog'a duogo'ylik qilmish bo'lg'aymen, vassalom».

Xullas, Navoiy asarlarida Qur'oni Karim oyatlari va suralari, Xadisi Sharifdagi hikoyatlar shoir ma'rifiy-ma'naviy g'oyalarining targ'ibi, asos tamal toshi sifatida singdirilgan bo'lib, zamondoshlari va kelgusi avlodlarini yuksak insoniylikka, komillik fazilatlariga da'vat etish, insoniyatni

ma'rifatga chorlashdan iborat edi. Tarix va madaniy merosimizni keng o'rganayotgan hamda naqshbandiylik ta'limotiga rag'bat ko'rsatayotgan ekanmiz, Alisher Navoiy asarlarini to'liq holda nashr etilishn ilmiy, ma'rifiy va axloqiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, Imom A'zam, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Hakim Termiziy, Bahouddin Naqshbandiy larning aqida va qarashlari bilan xalqimizni, xususan, yoshlarimizni yaqindan tanishtirish joyizdir.

III-BOB. NAVOIY IJODIDA MUHAMMAD PAYG‘AMBAR (S.A.V.)

SIYMOsi

3.1.Navoiy g‘azallarida Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) siymosi va ma’rifiy g‘oyalar. Hazrat Navoiy Shayx Attor yoki Mavlono Jaloliddin Rumiy kabi she’r yozishdan asosiy maqsadi “asrori ilohiy adosi va ma’rifati nomutanohiy imlosi” bo‘lmasa ham, e’tiqodi va dunyoqarashi asosini islom dini va tasavvufiy-irfoniy g‘oyalar tashkil etishi, uning gumanizmi aynan ana shu mangu va barhayot aqidalar asosida shakllanganligi ham inkor etib bo‘lmas haqiqatdir.

Navoiy she’riyatida Muhammad payg‘ambar(sav) siymosi shunchaki yangi dinning asoschisi yoki turli mo‘jizalarga ega, o‘zining go‘zal axloqi bilan namuna bo‘la olgan payg‘ambar sifatigagina emas, balki komillik timsoli bo‘lgan Hazrati Inson sifatida gavdalanadi. So‘fiylar aqidasiga muvofiq, olam yaralishida “nuri muhammadiy” yoki “haqiqati muhammadiya” asos qilib olingan. Ular bunga **“Avvalu mo xalaqallohu taolo kona nuri”** (Allah taolo yaratgan ilk narsa –mening nurimdir) hadisini dalil keltiradilar. G‘azal va dostonlarida Navoiy Muhammad payg‘ambar (sav)ni barcha odam va olamdagilardan oldin yaralgan zot, deya talqin qiladi:

Qidmat ichra barchadin bo‘ldung muqaddamroq, valek

Ulki sendindur muqaddamroq, erur hayyi qadim.³¹

“Hayrat ul-abror”dagi birinchi na’ti “Ul hazratning nuri qidamiyatidakim, zot bahrining avvalg‘i junbushida ul durri bebaho lam’asi xalo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ashi’asi lam’a ko‘rguzdi va durjdin durjg‘a intiqol etti to Safiyullohdin Abdullohg‘a etti” deb nomlanadi. Unda nuri muhammadiy azal charog‘ini yoritgani, olamda vujud sifatini kasb etgan barcha narsalar shu nuring fayzi tufayli bu martabaga etishgani,

³¹ Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. З-том. Фаройиб ус-сигар. – Т.: Фан, . 1988.-Б.175. (Изоҳ: кейинги мисоллар ушбу манбалардан олиниб, қавс ичидаги жилди ва бети кўрсатилиади)

insoniyat aslida uning farzandlari ekanligini turli dalillar bilan isbotlashga harakat qilingan. Jumladan, Odam so‘zi aslida “Ahmad” so‘zidagi uch harfdan tarkib topganligi, “Ho” (Ҳ) harfi esa Ahmadi mursalga berilgan Ilohiy muhabbat va shu tufayli Haq uni o‘z Habibi ekanligiga bashorat etganligi quyidagicha nazm silkiga tortilgan:

O‘zga dalil istasa tab’i saqim,
Basdurur Odamda “alif”, “dol”u “mim”.
Borchasi Ahmadda topib izzu shon,
O‘g‘lida uch harf atodin nishon.
“Ho”i muhabbat sanga-o‘qdur nasib,
Kim seni Haq dedi o‘ziga habib. (6.163)

Qur’oni Karimga muvofiq, olamdagи barcha mavjudotlar Alloh taoloning “Kun!” (Bo‘l! Yaral!) amridan so‘ng yo‘qlik olamidan paydo bo‘lganlar. Haqiqati muhammadiya ana shu amrning asosi— mohiyatidir:

Muhammad kofu nung‘a qurratul’ayn,
Tufayli kavn o‘lub, yo‘q-yo‘qki kavnayn. (1.189)

Bunga sabab, Alloh taoloning ushbu olamni yaratishdan maqsad Muhammad payg‘ambar edi. Mavlono Jaloliddin Rumiy “Masnaviyi ma’naviy”sida “Lav loka lamo xalaqtul-aflok” (Sen bo‘lmaganingda olamni yaratmasdim) qudsiy hadisining sharhida mulohaza yuritishicha, Muhammad payg‘ambarning olam yaratilgandan ancha keyin tug‘ilgani bilan olamdagи barcha mavjudotlar va hatto olamning o‘zidan ham muqaddamroq ekanligi meva va daraxt tanoquzi (paradoks) kabidir. Inson mevali daraxt ekayotganda uni keljakda beradigan mevasi uchun parvarish qiladi. Agar o‘sha keljakda berilishi kerak bo‘lgan mevasi bo‘lmaganida, bu nihol o‘tindan boshqa hech narsaga yaramaydi. Shuningdek, mevali daraxtning boshqa daraxtlardan afzalligi ham ana shu mevaning mohiyati unda mavjudligi, meva berish qobiliyati borligi, qolaversa, meva uning ko‘karishiga sabab bo‘lgan

danakning asosi ekanligidadir. Muhammad payg‘ambar ham olam yaralishida danakning mag‘zi rolini o‘ynagan nur sifatida barchadan burun bor edi:

Nuri mavjud ofarinishdin burun,
Kim edi xalqig‘a muddat olti kun...
Nur yo‘qkim, Haq taolo soyasi,
Lojaram o‘tti quyoshtin poyasi. (3.204)

Odatda, shohni Haq taoloning erdag'i soyasi –“zilli Iloh” deydilar. Navoiy o‘z she’rlarida payg‘ambarni “shoh”, deya vasf etadi. Ammo uning shohligi odatdagi podsholikdan farq qiladi. Uning tobelligida faqat musulmonlar emas, balki barcha mavjudot uning ra'yiga bosh qo‘yganlar. U faqat o‘z zamondoshlari va qalamravida hukmron emas – uning dini bayrog‘i ostida barcha payg‘ambarlar saf tortajaklar. Badeuzzamon Furuzonfar “Ahodisi Masnaviy” kitobida shu ma’nida payg‘ambarimizdan quyidagi hadisni keltiradi: **“Mo min nabiyyin Odama va mo sivohu illo tahta livoyi”** (Odam(a) va undan boshqa barcha nabiylar mening bayrog‘im ostida saf tortajaklar). Shunga asoslangan holda Navoiy ibtidosi yo‘q azaldan intihosi yo‘q abadgacha shohlikni payg‘ambarimizga musallam, deb biladi. Agar Iskandar Zulqarnayn kabi jahongirlar o‘z qilichi va tadbirdi bilan boshqa shohlar sultanatini bekor qilib, butun olamga bir muddat o‘zining siyosatini joriy qilishgan bo‘lsa, xotamulanbiyo o‘zigacha bo‘lgan barcha shariatlarni nasx – bekor qilib, qiyomatgacha Alloh taolo tomonidan yuborilgan yangi dinni mo‘minlar qalbida mustahkam o‘rnatishga erishdi. Demak, uning shohligi insoniyatning ruhiy olamida, ularning qalbida shahodat kalimasi o‘rnashgani bilan tasdiqlanadi:

Falakka bu baxshish qilurg‘a ne had,
Seni Haq shah etmish azal to abad.
Guvoh o‘ldi toji futuvvat munga
Dalil o‘ldi muhri nubuvvat munga. (2.16)

Muhammad alayhissalomning Payg‘ambarligi ham azaliy hodisa. Unga vahiy qirq yoshidan boshlab kelganiga qaramasdan, payg‘ambarlik rutbasi hali Odam Safiyaloh yaralishidan ancha oldin nasib etgan. Ibn al-Arabiyy ta’biri bilan aytganda, bu zot “Zamon nuqtai nazaridan barcha anbiyodan keyin tug‘ilganiga qaramasdan, barcha salaf payg‘ambarlar uning nubuvvat mushkotidan bahramand bo‘lganlar”. Shu sababdan, barcha payg‘ambarlar o‘z ummatlarini aslida uning diniga da’vat etganlar. Bas, Odam Safiyaloh va undan keyingi barcha insoniyat uning farzandlari hisoblanadi, degan xulosa chiqadi. So‘fiylar bu aqidani asoslashda Payg‘ambarimizga nisbat beriladigan “Kuntu nabiyyan va Odama baynal-moi vat-tiyn”(Hali Odam suv va tuprog‘i qorishmaganida men payg‘ambar edim) yoki “Kuntu nabiyyan va Odama baynar-ruhi val-jasad” (Men payg‘ambar bo‘lgan zamonlarda Odam ruh va jasad o‘rtasida edi, ya’ni hali yaralmagan edi) hadisiga tayanadilar. Buni Navoiy hazratlari o‘z dostonlari va g‘azallarida turli rang va ohangda bayon etganlar. Jumladan:

Zihi taqaddumung Odamg‘a bas hadisi sahih,
Bu nukta “kuntu nabiyyan” ishoratida sarih. (B-v., 78-bet)

Yoki “Saddi Iskandariy” dostonida Bulbashar, ya’ni Odam Atoni payg‘ambarimizning farzandi ekanligi bayonida bu ota va farzandlik munosabati uning asl mohiyati, ya’ni “haqiqati muhammadiya” tufayli sodir bo‘lganini qayd qilib o‘tadi:

Bu sabqatki, zotingg‘a berdi ahad,
Sanga Bulbashar tong yo‘q o‘lmoq valad...
Ajab yo‘q, sen o‘lmoq ato, ul sabiy,
Bu ma’nig‘adur doll “Kuntun-nabiy” (S-I., 21-bet)

Xullas, mohiyat nuqtai nazaridan barcha insoniyat, demak, barcha payg‘ambarlarning salafi va otasi bo‘lgan xotam ul anbiyo uchun boshqa payg‘ambarlar tomonidan odamlarni Haq yo‘liga hidoyat qilish uchun

ko‘rsatgan mo‘jizalari ham qaysidir ma’noda uning kamoloti va tengsiz salohiyatini ko‘rsatuvchi amallar hisoblanadi. Qolaversa, bu zotning shaxsiyati va dahosi boshqa payg‘ambarlardan bir bosh baland turadi.

3.2. Navoiy dostonlarida payg‘ambarlar siymosi va ma’rifiy g‘oyalari talqini. Navoiyning so‘z zaxirasi nihoyatda ulkan. Hazrat ishlatgan so‘z o‘yinlari ko‘lami ham beqiyosdir. Negaki, Navoiy she’rni shunchaki biror narsani bayon qilish emas, balki mo‘jiza ko‘rsatish deya hisoblaydi. Ul zot yozadi-ki:

Bo‘lmasa e’joz maqomida nazm,

Bo‘lmas edi Tengri kalomida nazm.

Navoiy o‘z asarlarida va Xurosonning vaziri a’zami sifatidagi faoliyatida insonni ana shunday tushunishni, qadrlashni, himoya etishni va savob ishlarga da’vat qilishni muqaddas vazifa deb bildi.

Insonni tavsiflashda Navoiy bir yoqlama mubolag‘aga yo‘l qo‘ymaydi, u odamning ojiz tomonlari borligini ham tan oladi. Ammo inson o‘z fazilatlarini himoya qila va saqlay olsa, uning hayot uchun kurashida fazilatlari ustun chiqishiga chuqur ishonch izhor etadi:

Bordir inson zotida oncha sharaf, -

Kim, yamon axloqin etsa bartaraf.

Islom aqidalariga ko‘ra bir kecha-kunduzda o‘qiladigan besh vaqt namoz «al-Xamsatu» deyiladi, dinimizning besh ustuni (rukni) ham tavhid (imon), namoz, ro‘za, zakot, haj — o‘ziga xos «Xamsa» (beshlik)ni tashkil etadi. Demak, Nizomiy dostonlarining «Xamsa» turkumi sifatida talqin etilishi, unga Amir Xusrav va Navoiy janoblari bejiz emas. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonining muqaddima qismida bu masalaga maxsus to‘xtalib, «Hamsa»ning har bir dostoni yozilishini kunning ma’lum vaqtlarida o‘qiladigan sahar, peshin, asr, shom va xufton namozlari bilan qiyos etadi hamda «Xamsa»ni buyuk tog‘ cho‘qqisiga ko‘tarilish mobaynida besh

o'rinda to'xtab, nafasni rostlash uchun bino etilgan besh oromgohga o'xshatadi.

Alisher Navoiy asarlarida ko'zga yaqqol tashlanib, barchaga ibrat bo'lgulik bir xususiyat borki, u ham bo'lsa bag'rikenglik va olajanoblikning ulug'lanishidir. Chunonchi ulug' shoir insoniyatni jinsi, irqi, millati yoki diniy e'tiqodiga qarab emas, balki ularning xislatlariga qarab baholash lozimligini ta'kidlab o'tadi. Shunga binoan, Navoiy asarlarida har xil irq va e'tiqodga mansub kishilar kuylangan, u o'z qahramonlarini turli o'lka va xalqlarning farzandlari sifatida tasvirlaydi:

...Ko'ngulni olsa malohat bila tafovut yo'q,
Xitoyi o'lsinu yo armani va yo hindu.
Husn chun jilva qilur, oqu qorada yo'q farq,
Kishiga kelsa balo-xohi Xito, xohi Habash.
Men tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab
Menga lo'li bila hindu, anga qo'ng'irotu qiyot.

Mana, oradan asrlar o'tibdiki, qomusiy bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan ulug' mutafakkirning jahon madaniyati xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas asarlari yangidan-yangi avlodga xizmat qilib kelmoqda. Uning boy va ulkan merosi umuminsoniy madaniyat xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shildi. Ularda buyuk kelajak, porloq hayot bilan bog'liq olajanob fikrlar olg'a surilgan. Shuning uchun bo'lsa kerakki, Navoiy asarlari ham makon, ham zamon bilan doimo hamohang, ichki mutanosiblikka egadir. Shoirimiz komil insonning oliy vazifasi haqida shunday deb yozgan edi:

Odami ersang, demagil odami,
Oni kim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Navoiy ijodida hayotga muhabbat insonning millatidan, irqidan va diniy mansubligidan qat'i nazar, uning qadr-qimmatini ulug'lash, xalqlar

o‘rtasida do‘stlik, birodarlik, tinchlik va hamjihatlik kabi ezgu g‘oyalar bilan sug‘orilgan. Ayniqsa, hozirgi kunimizda turli mintaqalarda ro‘y berib turgan millat va elatlararo janjalu mojarolarni oldindan ko‘ra bilgan buyuk Navoiyning bezavol o‘gitlari insoniyat tarixining barcha davrlari uchun hamohangdir:

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,

Yor o‘lung bir-biringizgakim, erur yorlig‘ ish.

Zamonamizning buyuk diniy ulamosi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ta’kidlagan edilarki: “*Boshqa payg‘ambarlarga ulkan mo‘jiza bo‘lib xizmat qilgan hodisalar Muhammad alayhissalom uchun oddiy bir ish edi. Deyarli hamma payg‘ambarlarga berilgan mo‘jizalarga o‘xshash ishlar Muhammad alayhissalom hayotlarida ham bo‘lib o‘tgan. Bu haqdagi xabarlar hadis kitoblarida bor. Lekin bu narsalar takrorlanaverib oddiy bir holatga aylanib qolganidan katta shov-shuv qilinmasdi*”. Navoiy ham o‘z she’rlarida qator joylarda Muhammad alayhissalomni boshqa payg‘ambarlar bilan qiyoslaydi va uning nubuvvat xaylida ham mislsiz ekanligini isbotlaydi. Jumladan, o‘zining go‘zal qiyofasi bilan mashhur bo‘lgan Yusuf (a) payg‘ambar haqida “Qisas ul-anbiyo”da ushbu hadis keltirilgan: “*Odam (a)ning husnini ikkiga bo‘ldilar: yarmini Yusufga berdilar, qolgan yarmini esa olam xalqiga ulashdilar*”. Ammo shunday mislsiz go‘zallik sohibi bo‘lgan Yusuf ham malohatda Muhammad alayhissalomga teng kelolmaydi. Chunki uning go‘zalligi ham Odam alayhissalomga jannatda bo‘lganida Alloh taolo tomonida berilgan husnning davrlar osha zohir bo‘lgan bir ko‘rinishi, xolos:

Yusuf ermas chun malohatda jamolingg‘a shabih,

Husnungga ani malih o‘limg‘ay etsam tashbih.

Odam asrorining ijmolini qildi tafsil,

Mundin erkinki deding al-valadu sirri abih. (N-n.,460-bet)

“Al-valadu sirru abih” iborasi ham payg‘ambarimiz hadislaridan bo‘lib, bu hadisni keltirish orqali Navoiy Yusuf (a) husni Odam Ato husnining “tafsili” ekanligiga urg‘u berish bilan birga, Odam ham aslida o‘z otasi – Muhammad alayhissalomga o‘xhash ekanligiga nozik ishora qilib o‘tadi. Birinchi baytda Yusufning husni malohat bobida xotamulanbiyo jamoliga tenglashmasligi haqida so‘z yuritiladi. Ushbu qiyos ham sahih hadis negizida shakllangan. Xabarda keltirilishicha, bir kuni Oyisha onamiz (raz) rasulullohdan so‘raydilarkim, husn bobida kim go‘zalroq– u kishimi yo Yusuf alayhissalommi? Payg‘ambarimiz javob beradilarkim: Birodarim Yusuf mendan go‘zalroqdir, ammo men u kishidan malohatliroqman. Zeroki u kishining husni olamga fitna soldi, ammo men barcha olamdagilarga rahmat qilib yuborilganman. Shu ma’noni Navoiy boshqa bir g‘azalda quyidagicha nazmga solgan:

Eyki Yusuf birla so‘rmishsen habibim husnidin,
Ul sabih o‘ldi latofat ichra, ammo bu malih.

“Sahihi Buxoriy”ning “Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning sifatlari xususida”gi bobida xotamulanbiyoning siymolari to‘g‘risida quyidagi hadis mavjud: *Abu Ishoq*: “*Barodan: “Rasululloh (sav)ning yuzlari qilich kabi (jilvali, porloq) erdimi?”* –deb so‘rashdi. *Shunda Baro*: “*Yo‘q, balki oy (qamar) monand erdi,*” –deb javob berdilar,” –deydilar. Mumtoz Sharq she’riyatida go‘zal yorni oyga nisbat berish sabablarining biri ham ushbu hadisning ma’nosini bo‘lsa, ajabmas. Navoiy quyidagi baytda Muhammad alayhissalomning Qur’onda “Najm” (yulduz) sifati bilan keltirganligini hisobga olgan holda, salaf payg‘ambarlar hamda xotamulanbiyoning Ilohiy Saodatga erishish bobida qiyoslashda yulduz va oy tanosubidan mahorat bilan foydalangan. Agar boshqa nabiylarning tole’ osmonida baxt yulduzi porlagan bo‘lsa, xotamulanbiyoning o‘zlarini barcha payg‘ambarlar va umuman bashariyat olamining baxt-saodat yulduzi

hisoblanadilar. Qolaversa, nujum ilmida tolening sa'd yo nahs kelishini aniqlash oyning qaysi osmoniy burjda qaror topganiga bog'liq:

Nubuvvat avjida ko'p tole' o'ldi axtari sa'd,

Biri sen oydek emas erdi axtari mas'ud (B-v., 88-bet)

Islom tarixidan ma'lumki, chehrasi ilohiy fayz tajalliyisidan oydek porlab turgan so'nggi payg'ambarning shariatini Makka mushriklari qabul etmasdan, undan mo'jiza talab qiladilar. "...*Shunda ul zot oyni ikkiga bo'lib ko'rsatdilar, hatto odamlar Hiro' tog'ini oyning ikki bo'lagi orasida ko'rishdi*". Ushbu hodisani Navoiy qit'alardan birida o'ziga xos mahorat bilan tasvirlagan. Navoiy talqini bo'yicha, mazkur amal Allohning inoyati bilan shuncha osonlik bilan amalga oshdiki, hatto mehmonsiz ovqatlanmaydigan Ibrohim Xalilulloh dasturxonida nonni ushatish bunchalik osonlik bilan muyassar bo'lgan emas:

Muhammadi arabiy barmog'i ishorat ila

Sipehr xonida oy qursi ul sifat oson

Iki oyirdiki, bir nonni xoni ichra Xalil

Aningdek ikki ushatmoq emasturur oson.

Iso alayhissalom va Muhammad Mustafo (sav)ning o'xshash tomonlaridan biri – ikkalalariga ham So'z e'jozi nasib etgan. Iso alayhissalom o'z nafasi bilan o'liklarga jon kirgizgani hamda dardmandlarga shifo bergani to'g'risida diniy adabiyotlarda qator qissa va rivoyatlar mavjud. Muhammad payg'ambarga esa butun olam asrorini o'zida mujassam etgan So'z – Qur'oni karim berilgan. Agar Iso Masihning mo'jizasi jismlar olamiga oid bo'lsa, xotamulanbiyoning mo'jizasi abadiy barhayot ruhoniyat olamiga tegishlidir; Isodan shifo topganlar yoki u tufayli qayta tirilganlar ertami-kech fony dunyonи тарк etishga mahkumdirlar. Narigi olamda bu mo'jizaviy ko'mak hech narsaga yaramaydi, ammo Muhammad alayhissalom keltirgan So'zdan bahramand bo'lgan jonlar ikki dunyo

saodatiga erishishi muqarrar:

Berur ul bir o‘lukka jon so‘zidin,
Tan aro kirguzur ravon so‘zidin.
Muni derlar: “Muhammadi arabi”
Ul birining “Masih” erur laqabi.

Navoiy Iso Masih mo‘jizalari to‘g‘risida ham “haqiqati muhammadiya” ta’limotiga muvofiq mulohaza yuritadi. Uning fikri bo‘yicha, Iso Masihning o‘likni tiriltiruvchi mo‘jizasi ham Yusufning husni kabi xotamul anbiyoning “nubuvvat mushkoti”dan bahramand bo‘lgani tufaylidir. Bu aqida rasmiy kalom ilmi namoyandalari tomonidan unchalik maqbul ko‘rinmasa ham, so‘fiylar halqasi, ayniqsa, vahdat ul-vujud nazariyasi tarafdorlari ichida keng targ‘ib qilinardi:

Gar takallumdin o‘lukni turguzurlar xo‘blar,
Barchasig‘a mahvashim go‘yo qilur talqin hadis.

Shu o‘rinda shuni ham qayd qilib o‘tish kerakki, vahdat ul-vujud nazariyasining asoschisi Muhyiddin Ibn al-Arabi barcha olamdagilardan oldin vujudga kelgan Muhammad bilan islom shariatini joriy qilgan Muhammad payg‘ambar o‘rtasida farq qo‘yadi. Uning aqidasi bo‘yicha, “haqiqati muhammadiya” ilohiy asrorning biroz konkretlashgan ko‘rinishi, Muhammad esa shu haqiqatning moddiy olamdagagi ifodasi, xolos. Ammo Navoiy o‘z she’rlarida tavsiflagan Muhammad qandaydir mavhum, umumiy tushuncha emas, balki u:

Qurashiy asl, Abtahiy mahmil,
Hoshimi kesh, Yasribiy manzil.

Yetimlikda o‘sib-ulg‘ayib, bir muddat savdogarlik bilan shug‘ullanib, tijorat ahlining ishonch va hurmatiga sazovor bo‘lgan, odamiylikning oliy namunasi hisoblanmish eng go‘zal fazilatlarning sohibi, Allohning sifatlari bilan ziynatlangan inson:

Deb laqabin ahli tajammul Amin,
Andin o‘lub hamdami Ruhul-amin.

Payg‘ambarimiz (sav)dan rivoyat qilinadigan har bir hadis u kishining “kamol ahli ichra eng akmali” ekanligiga guvohlik beradi. Jumladan, Abdulloh ibn Umar (raz)dan quyidagi hadis rivoyat qilinadi: “*Rasululloh (sav) o‘zлari ham shaloq so‘zлarni so‘zлamas, o‘zgalarni ham shaloq so‘zlamog‘iga yo‘l qo‘ymas erdilar va ul zot “Darhaqiqat, sizlarning yaxshingiz–xulqi yaxshingizdur!” – deb marhamat qilar erdilar*”. O‘zi ham go‘zal axloq sohibi bo‘lgan shoirni o‘z dini bilan birga go‘zal axloqni ham targ‘ib qilgan va shunga og‘ishmay amal qilgan payg‘ambarimiz dahosining bu qirrasi ham maftun etgandi, albatta. Jumladan, g‘azallarning birida shunday deb yozadi:

Zihи azalda karam aylabon sanga xalloq,
Karimi xilqat ichinda makorimi axloq.

Shu o‘rinda yana bir narsani alohida qayd qilmoqchimiz: islom dini zaminida shakllangan barcha ta’limotlar (albatta, dinni o‘zining g‘arazli niyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun noto‘g‘ri talqin qiladigan ayrim buzg‘unchi toifalar bundan mustasno) Muhammad payg‘ambarni kamolotning timsoli va komil insonning yuksak namunasi deya e’tirof etadilar. Alloh taolo ham barcha mavjudotdan avval Komil Inson – Muhammad Mustafoning nurini yaratgan ekan, demak, kamolotga intilish, hayvoniy xislatlardan poklanib, makorimi axloq – go‘zal xislatlar bilan ziynatlanish va xotamulanbiyo kabi to‘g‘ri so‘z, ezgu amal va pok niyat bilan yashash har bir insonning bu dunyodagi eng oliy maqsadi bo‘lmog‘i zarur. Navoiyning Muhammad payg‘ambar siyemosini o‘z she’rlarida yaratishi ham ana shu oliy maqsad va ulug‘ g‘oya sari odamlarni chorlashning bir ifodasıdir.

“Sunani Termiziy”da Abbos ibn Abdulmutallibdan rivoyat qilingan

hadisda keltirilishicha, kunlardan bir kuni bir guruh sahabalar payg‘ambarni kutib o‘tirardilar. Ul zot chiqib, ularga yaqinlashganlarida, ularning Ibrohim Xalilulloh. Muso Naijiyulloh, Iso Ruhulloh, Odam Safiyalloh kabi payg‘ambarlarni o‘zaro eslashib sifatlayotganlarini eshitib qoladilar. Salom berib ularning suhbatlariga qo‘shilgan payg‘ambar ularning so‘zlarini tasdiqlab, ilova qiladilar: “*Ogoh bo‘lingkim, men Allohning Habibiman va bunda hech qanday (ortiqcha) faxrlanish yo‘q. Men qiyomat kuni hamd bayrog‘ini ko‘taruvchi hamda birinchi shafoat so‘rovchiman va bunda hech qanday (ortiqcha) faxrlanish yo‘q. Men qiyomat kuni birinchi shafoat qilinuvchiman va bunda hech qanday (ortiqcha) faxrlanish yo‘q. Men jannat halqalarini birinchi harakatga soluvchiman. Bas, Alloh uni (aynan) men uchun ochar hamda meni va mening ummatimning faqirlarini unga kirgizar. Men avvalgilar va oxirgilarning eng mukarramiman va bunda hech qanday (ortiqcha) faxrlanish yo‘q.*” Ushbu hadisdagi payg‘ambarimiz sha’nida aytilgan so‘zlar yuqorida aytilgan hadislarning xulosasi va qaymog‘idir.

Xullas, shunday ulug‘ payg‘ambarning ummati bo‘lgan Navoiyning:

Ulusni tutti Navoiy so‘zi aning birla
Magar rasuli alayhissalom qildi hadis.

- deganida ham hech qanday ortiqcha faxrlanish yo‘q, balki voqelikning ayni o‘zidir.

XULOSA

Buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning ijodida diniy ma’rifiy g‘oyalarni o‘rganish quyidagi umumiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

1.O‘zbek xalqi o‘tmish davrlardan yetib kelgan, nihoyatda boy adabiy, madaniy – ma’naviy, lisoniy merosning sohibidir. Ushbu ko‘p qirrali merosning tarkibiy qismini o‘tmish ajdodlarimiz yaratgan va o‘zлari izchil amal qilib kelgan nutq odobi va madaniyatiga oid fikrlar, qoidalar majmui bo‘lgan lisoniy, ilmiy – axloqiy ta’limot tashkil qiladi. Ushbu ta’limotning negizi va mohiyati, ilmiy tamoyillari, an’ana va talablari ulug‘ mutafakkirlar Kaykovus, Mahmud Koshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy va boshqalarning asarlarida bayon qilingan. Bular orasida Alisher Navoiy qoldirgan bebafo fikrlar alohida o‘rin egallaydi.

2. Sharq xalqlari, ayniqsa, o‘zbek, fors-tojiklarning madaniy hayotidagi ajralib turadigan xususiyatlardan biri, ayniqsa, she’riyat va u bilan bog‘liq she’riy san’atlardir. Katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan o‘zbek adabiyoti XIV-XV asrlarga kelib katta taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Bunda Alisher Navoiyning xizmatlari katta bo‘ldi.

3. Albatta, bu davrda adabiyot tasviri san’at bilan bevosita aloqada edi. Ayniqsa, XIV-XV asrda Sharqda mashqur bo‘lgan Xurosan va Movarounnaxr miniatura maktabi adabiy, tarixiy asarlarni mazmundor rasmlar bilan boyitdi. Xusan, Sharq Rafeali nomi bilan mashhur bo‘lgan rassom Kamoliddin Behzodning rassomchilik maktabi diqqatga loyiq. Bu davrda turli badiiy asarlar, jumladan Firdavsiyning «Shohnoma»si, Nizomiy, Amir Xusrav, Navoiy, Jomiyning «Xamsa» va Xaft avrangi, Boburning «Boburnomasida ishlangan miniatura va suratlar Sharq tasviri san’atining yuksak namunasi sifatida bugungi kunda ham yuksak qadrlanib kelmoqda.

Bu masalaning biz uchun mohiyatli tomoni yana shundaki, adabiyot o‘zining ommaga olib boradigan ta’sirini yakka o‘tkazmaydi. Xatdagi yuksak chiroy, husn, badiiy asardagi miniaturalar adabiyotining ta’sirchanligiga, xalqqa tezroq borib yetishish va ko‘proq foydali bo‘lishiga xizmat qildi.

4. Shubhasiz, xat va xattotlik, rassomlikning yuksalishi va bunchalik shuhrati adabiyotga, jumladan, Navoiy ijodiga ta’sirsiz qolmadi. Shunisi ma’lumki, Navoiy xat qoidasi va xattotlik haqida alohida risola bitmagan. Lekin asarlardagi sochma fikrlar uning bu masalaga katta e’tibor bilan qaralgannini, kotiblarga xomiy bo‘lganini va kitobat ishining taraqqiyotiga jon kuydirganini ko‘rsatadi. Navoiyning kotiblarga bergen bahosi orqali uning badiiy adabiyotga bo‘lgan munosabatining yangi qirralarini ochishi imkon tug‘iladi.

5. Navoiy «Xazoin ul-maoniy», «Mahbub ul-qulub», «Xamsa», «Majolis un-nafois», «Xamsatul-mutahayyirin», «Munshoot» va boshqa asarlarida Muhammad Payg‘ambar siymosi, uning amallari va amri vojiblariga ishoralar qiladi.

6. Alisher Navoiy adabiy merosi adabiyot va san’atning tarixi va taraqqiyotini o‘rganishining muhim manbaidir.

7. Alisher Navoiyning ulug‘vorligi shundaki, unda zohiriyl va botiniy ma’nolar, ya’ni ishqilohiy va ishqimajoziy ifodalari bir-biriga xalaqit bermaydi, balki bir-birini to‘ldirib, quvvatlab turadi. Boshqacha aytganda, ishqimajoziy tasviridan ishqimajoziy tasviriga yoki aksincha holatga oson o‘tiladi, kitobxon goh bu ma’nodan, goh u ma’nodan, goh har ikkisidan zavqlana oladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot bilan adabiyotshunoslik yonma-yon taraqqiy etdi, badiiy asarlarni xalqqa tez etib borishi uchun ko‘makdoshlik vazifasini o‘tadi. Navoiy adabiyot - badiiy asarga yuksak e’tibor bilan qarar ekan, uning rivojiga arzigulik hissa qo‘shdi, o‘z davrida adabiyot ahlini

rag‘batlantirish, ularni ham moddiy va ham ma’naviy jihatdan qo‘llab, yangidan-yangi asarlar yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Fikrlarimizning intihosida buyuk shoir Alisher Navoiyning quyidagi rubboysi bilan yakunlashni ma’qul ko‘rdik. Zero, rubboiyda bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar (pandemiya) haqiqiy, chin insoniy fazilatli insonlarning va ayrim noshukur odamlarning ma’naviy olamini ko‘rsatayotgani navoiyona bashorating dalolatidir.

Kim istasa sultanat, saxodur anga shart,

Har va’daki aylasa vafodur anga shart.

Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,

Ollig‘a nekim kelsa, rizodur anga shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б. 113.
2. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик- ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократии Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Тошкент: Ўзбекистан НМИУ, 2016
4. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: Маънавият. 2008.
5. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. -Т.: Ўзбекистон. 1994.
6. Абдуллаев В. Алишер Навоий Самарқандда. -Т.:, 1967.
7. Абу Абдуллоҳ Рӯдакий. Бобо Тоҳир. Сайланма. -Т.: Шарқ, 1994.
8. Айний С. Асарлар. 8 томлик. - -Т.:, 1967.
9. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия. -Т.: Фан, 1993.
10. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 4 томлик. -Т.: Фан, 1983.
11. Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари.Тўплам. -Т.: Фан, 1993.
12. Алишер Навоий. Бадоев ул-васат // Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. 4 томлик. -Т.: Фан, 1960.
13. Алишер Навоий. Девони Фоний//Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. -Т.: Фан, 2003.
14. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар/Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик.-Т.: Фан, 1990.
15. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин/ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик.-Т.: Фан, 1991

16. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳайирин / Табдил матн, изоҳ ва таржималар муаллифи Сўйима Фаниева. - -Т.: ТошДШИ нашриёти, 2004.
17. Алишер Навоий. Ҳолоти Сайид Ҳасан Ардашер //Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. - -Т.: Фан, 1999.
18. Алишер Навоий асарлари луғати/Тузувчилар П. Шамсиев ва С.Ибрагимов. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1973.
19. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик.– Т.: Фан, 1988-2000.
20. Алишер Навоий. Арбаин. Матнни нашрга тайёрловчи Сўйима Фаниева. –Тошкент: «Фан». 2000.
21. Алишер Навоий. Сирож ул-муслимин. Матнни нашрга тайёрловчи Сўйима Фаниева.- Тошкент: Фан. 2000
22. Алишер Навоий. Муножот. Матнни изоҳ ва таржималар билан нашрга тайёрловчи Сўйима Фаниева. –Тошкент: Камалак. 1991
23. Бозорова Н. Алишер Навоий ғазаларида кўнгил образи («Бадоев ул-бидоя» асари асосида). Филол. фанлари номз. дисс. -Т.: 2001.
24. Бобур. Бобурнома. - -Т.: Юлдузча, 1989.
25. Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йигилари ва йўқловлари. - Бухоро, 2004.
26. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. -Т.: Халқ мероси, 2002.
27. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи. - Самарканд, 2002.
28. Девону луғотит турк. / Тузувчилар Д.Ражабов, Ҳ.Бердиев. -Т.: Муҳаррир, 2010.
29. Жомий ва Навоий. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1989.
30. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. -Т.: Фан, 2002.
31. Орзибеков Р. Ўзбек лирик шеърияти жанрлари. -Тошкент, Фан, 2006.

32. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. -Т.: Фан, 1983.
33. Имом ал-Бухорий. Ал-жомиъ ас-саҳиҳ. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.
34. Фаниева С. Алишер Навоийнинг Саййид Ҳасан Ардашер вафотига ёзган марсияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974. №1.
35. Литературный энциклопедический словарь. - М.: СЭ, 1987..
36. Навоийга армуғон. Мақолалар тўплами. -Т.: Халқ мероси, 2003.
37. Навоийнинг ижод олами. Мақолалар тўплами. -Т.: Фан, 2001.
38. Орзивеков Р. Адабий меросимиз сехри. - Самарканд, 2006.
39. Ражабова М.. «Назм ул-жавоҳир» тарихига оид муҳим манба// Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). - Тошкент: Ўзбекистон, 2011. -Б .72-75).
40. Рамазонов Н. «Насойим»нинг ўзига хос хусусиятларига доир/ Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). - Т.: Фан, 2001.
41. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Faфур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
42. Саримсоков Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари.-Т., 2004.
43. Сулаймон Ҳ. «Хазойинул-маоний»текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари//Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сирап. Т. 1. -Т.: Фан, 1960.
44. Сулаймон Ҳ. Алишер Навоийнинг Ғариб Мирзо вафотига ёзган марсияси//Адабий мерос. - -Т.: Фан, 1971.
45. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. Нубуvvat ва рисолат китоби, 26-бет. Т.:Шарқ, 2006 йил
46. Фитрат А. Энг эски турк адабиёти намуналари /Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд. - -Т.: Маънавият, 2006.

47. Куръони Карим маъноларининг таржимаси/ Таржима ва изоҳлар муаллифи А.Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёти, 2001. – Б.334.
48. Қаюмов А. Алишер Навоий. - -Т.: Камалак, 1991.
49. Қурунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. -Т.: Академнашр, 2010.
50. Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. - -Т.: Ўқитувчи, 1997.
51. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т.: Маънавият, 1998.
52. Ҳаққулов И. Ёшунрон эмиш қаро булутқа моҳим /Ҳаққулов И. Шеърият. Руҳий муносабат. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.
53. Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият луғати. -Т.: Янги аср авлоди, 2008.
54. Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1979.

Интернет сайтлари:

55. www.ziyouz.com
56. www.literature.uz
57. www.Ziyonet.uz

ILOVA 1

Mavzuning amaliyotga tatbiqi. Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, ta’lim tizimiga alohida e’tibor berilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”, Respublika Prezidentining farmonlari va hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar o‘quv predmetlari bo‘yicha davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda boshqa o‘quv-metodik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingandan so‘ng o‘rta umumta’lim tizimida o‘qitiladigan fanlardan davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va hukumat tomonidan tasdiqlandi. Mamlakatimizda ta’limning huquqiy asoslari, istiqbollari qonun bilan, uning mazmun va sifati standartlar bilan, tashkiliy-amaliy jihatlari o‘quv dasturlari bilan belgilangan, o‘quv-metodik tadbirlar darslik va qo‘llanmalarda tavsiya etilgan. Demak, jamiyatda sohaning qonuniy, huquqiy, tashkiliy asoslari yaratilgan, tizimga solingan. Endi bu yog‘i ana shu “belgilab qo‘yilgan” larni amalga oshiruvchi muassasalar, ta’lim amaliyotining ishtirokchilari: pedagoglar, soha rahbarlari, shuningdek, o‘quvchilar va ularning ota-onalariga bog‘liq.

Ta’lim bosqichlarida o‘qitiladigan hamma predmetlar uchun bir xil shart-sharoit, o‘quv, moddiy-texnik baza yaratilgan. Ularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan muvaffaqiyatlar, qo‘lga kiritilgan yutuqlar ham bor. Lekin har bir predmet bo‘yicha ishlar sarhisob etilganda turlicha natijalar qayd etilayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Ilmiy-nazariy asoslari deyarli barqaror, o‘zgarmas bo‘lgan tabiiy-matematik fanlar bilan jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy qarashlariga aloqador bo‘lgan ijtimoiy-gumanitar fanlarga yondashuv o‘rtasida tafovut bo‘lishi tabiiy bo‘lganidek, ularni o‘qitishda duch kelinadigan muammolarda ham ayrichaliklarning bo‘lishi turgan gap. Chunki mustaqillikdan keyin nazariy mohiyati tubdan qayta

ko‘rib chiqilgan ijtimoiy fanlarning ilmiy-pedagogik, o‘quv-metodik asoslariga yangicha yondashuvni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Barkamol shaxsni shakllantirish nafaqat adabiy ta’lim, balki O‘zbekiston maktablaridagi barcha fanlarni o‘qitishdan ko‘zlangan bosh maqsaddir. Ta’lim tizimidagi har bir predmetning bu borada muayyan imkoniyatlari bor. Lekin ularning har biri shaxs komilligining qaysidir bir sifati, muayyan jihatini shakllantirishda alohida mavqega, imkoniyatga ega. Adabiyot esa o‘quvchi shaxsiyatida ruhiy poklik, ma’naviy yuksaklik sifatlarini tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ma’naviyat insonda yaxlit holda namoyon bo‘ladigan fenomendir.

Endilikda o‘zbek adabiyoti tarixi yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda, bu davrda yaratilgan asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarlarni asosan ijtimoiy nuqtai nazardan tekshirishga moslashgan bo‘lsa, endi mavjud qoliplarni tark etaroq, badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matndan keltirib chiqarishga urinmoqda. Natijada, ko‘plab bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o‘rni xolisona belgilanayotir.³²

Adabiyotshunoslik ilmida ro‘y berayotgan yangilanishlarni adabiyot o‘qitish jarayoniga tadbiq etish o‘tgan asr 90-yillarining birinchi yarmidan boshlab yaratilayotgan dastur, darslik va qo‘llanmalarda aks etib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Bu o‘z navbatida Respublika maktablaridagi adabiyot o‘qitish ishiga ijobiy turtki berdi. Uzliksiz ta’lim tizimi dastur va darsliklarini yaratish ishlariga respublikamizning taniqli olimlari va metodistlarining jalb qilinishi sohada muayyan yutuqlarga erishishimiz uchun zamin hozirladi. Bu borada Q.Yo‘ldoshev, B.To‘xliev, S.Matchon,

³² Козокбай Йўлдош. Ёник сўз. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2006. 94-б.

M.Mirqosimova, Q.Husanboeva, V.Qodirovlarning olib borgan tadqiqotlari, yaratgan monografiya va qo'llanmalari alohida e'tiborga molikdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017 yil 6-apreldagi 187 - qarori va qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti"³³, Respublika Ta'lim Markazi tomonidan ishlabchiqilib amaliyotga joriy etilgan 5-10-sinflarning Adabiyot fanidan majburiy ta'limning kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturi va taqvim-mavzu rejasida buyuk gumanist shoir, buyuk xamsanavis, davlat arbobi, millatimiz iftihori Alisher Navoiy hayoti va ijodiga ajratilgan soatlar taqsimi quyidagi jadvalda keltirilgan

Mavzular	Dars mavzusi va ish turi	Soati
	V - sinf	
	III-chorak	
	MUMTOZ ADABIYOT BO'STONI	
69- 72	A.Navoiy. "Hayrat ul-abror" dostonidan	4
73	8-nazorat ishi. Taassurot yozish. "To'g'rilik – eng yaxshi fazilat", "Yomonlik boshga kulfat keltiradi"	1
	VI - sinf	
	III-chorak	
	SO'ZDA HIKMAT BOR	
39-41	Alisher Navoiy. Hikoyatlar.	3
	VII - sinf	
	II-chorak	
	O'TMISHDAN SADOLAR	
29-31	Alisher Navoiy. «Mehr va Suhayl» («Sab'ai sayyor»dan).	3
	VIII - sinf	
	I-chorak	
	O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI	

³³ "Umumiy ўрта ва ўрта маҳсус, қасб-хунар таълимининг давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-apreldagi 187-карори. www.lex.uz

15-16	Alisher Navoiy. G‘azallar	2
II-chorak		
19-22	Alisher Navoiy. G‘azallar, qit’alar. Ifodali o‘qish	4
23	G‘azalxonlik musobaqasi	1
IX-sinf		
I-chorak		
O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI		
11-20	Alisher Navoiy. «Hamsa» asari. «Farhod va Shirin» dostoni. Matn ustida ishslash, timsollar tahlili. Nazariy ma’lumot. Komil inson.	10
X-sinf		
II-chorak		
Mumtoz adabiyot		
14-17	Alisher Navoiy lirikasi	4
22-23	Nazorat ishi. Insho va uning tahlili. “Navoiy lirkasining badiiyati”, “Boburnoma”dan olgan taassurotlarim.	2
XI-sinf		
I-chorak		
Mumtoz adabiyot		
11-14-	Alisher Navoiy. “Layli va Majnun”	4
JAMI SOAT:		38

Ko‘rinadiki, A.Navoiy hayoti va ijodiga, lirik merosi va “Xamsa” dostonlariga jami 38 soat dars mashg‘ulotlari ajratilgan bo‘lib, shundan, 1tasi (“G‘azalxonlik musobaqasi”), 2tasi nazorat ishi (Taassurot yozish. “To‘g‘rilik – eng yaxshi fazilat”, “Yomonlik boshga kulfat keltiradi”), shundan 1tasi (“Navoiy lirkasining badiiyati”. Insho va uning tahlili) bo‘lib, 3tasi lirik asarlariga, 5tasi “Xamsa” dostonlariga ajratilgan. Dasturda “Xamsa” dostonlaridan “Hayrat ul abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlariga, «Sab’ai sayyor»dan «Mehr va Suhayl» hikoyasiga dars mashg‘ulotlari olib borish belgilangan.

Biz o‘rgangan muammo bo‘yicha VIII – sinfning II-choragida “O‘zbek adabiyoti tarixi” rukni ostida “Alisher Navoiy. G‘azallar, qit’alar. Ifodali o‘qish” (19-22) mavzusiga 4 soat ajratilgan. Demak, ta’lim bosqichlari dastur

va darsliklarida mavzu berilgan. Ana shu holatlarni inobatga olgan holda quyida amaliyotda qo'llagan 1 soatlik dars ishlanmasini taxminiy matnini beramiz.

Dars ishlanmasi.

Fan: Adabiyot

Sana: “___” 2019/2020 o‘quv yili

Sinf: 8

Dars: № 19-22

Mavzu: “Alisher Navoiy. G‘azallar, qit’alar. Ifodali o‘qish”

Darsning maqsadi:

A. Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga Alisher Navoiy haqida qisqacha ma’lumot berish (Esga tushurish). G‘azallar va qit’alaridan ifodali o‘qish.

B. Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni buyuk ajdodlarimiz ruhiga hurmat, ularning mardligi, Vatan himoyasidagi jasorati, tug‘ilib o‘sigan Vataniga muhabbat, yaqinlariga hurmat va e’tibor ruhida tarbiyalash;

D. Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, fikrlash doirasini kengaytirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: B1+ mavjud axborot manbalari (kitob, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar, kompyuter va boshqlar)dan o‘quv maqsadlari doirasida foydalana olish va ulardagи materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o‘z faoliyatida qo’llash;

O‘z – o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi: B1+ bilimlarini mustaqil ravishda oshirib borish, kundalik faoliyatda til qoidalariga amal qilish hamda nutqiy jarayonda egallagan bilimlarni to‘g‘ri qo’llash; shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma’naviy ehtiyojga aylantirish; badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy

qadriyatlarni e'zozlash va ularga amal qilish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish; tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlар, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo'lish; badiiy asarlarda aks etgan ma'naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglash, his etish va boshqalarga yetkazishga intilish.

Milliy va umummadaniy kompetentsiyalar: **B1+** badiiy adabiyotda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlар tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnat olishga intilish, yovuzlikdan nafratlana bilish.

Dars metodi: Interfaol, «Nuqtai nazaring bo'lsin», «Taqidiy tafakkur» metodlari.

Dars usullari: “Hamkorlik kvadrati”, “Zakovat” o'yini,

Dars jahozi: Darsligi, kompyuter, proektor, taqdimotlar, internet ma'lumotlari, ko'rgazmalar, vatman qog'oz, marker, tarqatma didaktik materiallar, skotch, rag'bat kartochkalari.

Nazorat: O'quvchining darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: janr, g'azal, tuyuq, qit'a, timsol, ramz.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- o'quvchilarни darsga hozirlash:
- davomatni aniqlash:
- o'quvchilarning darsga tayyorlarligini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash: I-chorakda o'tilgan mavzular takrorlanadi. Taxminan quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Istiqlol, mustaqillik bizga nimalarni berdi?

2. «Kuntug‘mish» dostonida qanday timsollar bor?
3. Dostoning bosh g‘oyasi?
4. Dostoning bosh qahramoni?
5. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida bilim, ilm olish haqida qanday fikrlar bor?
6. «Qutadg‘u bilig»da til odobi haqida qanday fikrlar aytilgan?
7. Lutfiy lirikasining timsollari?
8. Alisher Navoiy g‘azallaridan yod ayting?

Savollarga javob olingandan keyin yangi mavzu boshlanadi

III. Yangi mavzu bayoni: Dastlab monitorda Alisher Navoiyning quyidagi ikki qit’asining matni keltiriladi.

O‘quvchilar daftalariga ko‘chirib yozadilar. O‘qituvchi oldin bergen ma’lumotlar, tushunchalarga suyangan holda savol-javob tariqasida qit’adagi asosiy so‘zlarni sharhlab, tahlil qilishi lozim. (Ishning 2.2. faslida tahlil qilganmiz)

Kamol et kasbkim, / olam uyidin,
Senga farz o‘lmagay / g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih /
Erur hammomdin / nopol chiqmoq

Chun g‘araz so‘zdin erur ma’ni anga/,
Noqil o‘lsa xoh xotun/, xoh er.
So‘zchi holm boqma/, boq so‘z holini/,
Ko‘rma/ kim der ani/, ko‘rgilkm ne der.

Misralardagi / belgisi orqali ifodali o‘qishda ohang ko‘tarilishi hamda to‘xtalish kerak bo‘lgan o‘rinlar bo‘lib, belgidan keyingi so‘z ham aynan shu ko‘tarilgan ohang bilan aytila boshlanadi va asta-sekin tushadi. Shunda mazmunni bo‘rtirishga xizmat qiladigan birinchi qit’adagi *Kamol et kasbkm,*

Senga farz o'lmagay, notamom o'tmak biaynih, Erur hammomdin; Ikkinchı qit'adagi: xoh xotun, xoh er; boqma, boq; ko'rma kim, ko'rgilkim juftliklariga ohang bilan mantiqiy urg'u berishga muvaffaq bo'linadi.

"Hamkorlik kvadrati". Guruhlarga konvertlar tarqatiladi va qit'a matnni to'g'ri tiklash so'raladi.

1- konvert

Chun g'araz so'zdin erur ma'ni anga,

2- konvert

Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er.

3- konvert

So'zchi holin boqma, boq so'z holini,

4- konvert

Ko'rma kim der ani, ko'rgilkim, ne der.

Guruhlar matnni to'liq tiklaganlaridan keyin rag'batlantirilib, "Zakovat" o'yini o'tkaziladi.

Guruhlarga 3 ta quticha savol beriladi.

1-savol:

Yaxshilik gar qilmasa, bori yamonlig qilmasa,

Kim yamonlig qilmasa, qilg'ancha bordur yaxshilik"".

Degani nima?

2-savol:

Ko'p oltun, kumush sari qo'l sunmog'il,

Ki tutsang, kaftigni qora zang etar".

U narsa nima?

3-savol:

Yuqori o'ltururni kim tilasa,

Kishilikdin ani yiroq bilgil.

Degani nimani anglatadi?

Mazkur savollarga javob olingandan keyin o'quvchilar

rag ‘batlantiriladi.

IV. Mavzuni mustahkamlash: O‘quvchilari Navoiy g‘azallari va qit’alarini ifodali o‘qiydilar.

«Taqidiy tafakkur» usulidan foydalananib o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

- Nima deb o‘ylaysiz?
- Fikringiz qanaqa?
- Sizningcha qanday?
- Kimda boshqa fikr bor, nega?
- Kim aytilgan fikrni ma’qullamaydi, nega?
- Nega boshqa o‘quvchining nuqtai nazarini ma’qullamaysiz?
- O‘z nuqtai nazaringizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?
- Sizningcha, kimning nuqtai nazari eng maqbul?

V. O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilar bahosi e’lon qilinadi

VI.Uyga vazifa: 1. G‘azalxonlik musobaqasiga tayyorlanish. Alisher Navoiy g‘azallaridan yod olish.

ILOVA 2

1-rasm

Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari

